

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLGIYA INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida

Abdurashidov Boburjon Baxtiyor o'g'li

**Sanoat korxonalarini rivojlantirishda tijorat banklarining
tutgan o'rni**

Mutaxassislik: 5340100 – “Iqtisodiyot”

Bakalavr akademik darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy raxbar:

Kat.o'qituvchi Tursunov N.

Namangan-2015 yil

Sanoat korxonalarini rivojlantirishda tijorat banklarining tutgan o`rni

Kirish.

I – bob. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda tijorat banklarining roli va ahamiyati.

1.1. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda bank tizimini va uning nazariy asoslari.

1.2. Respublikamizda tijorat banklarining sanoat korxonalarini rivojlantirishdagi o`rni va roli.

II-bob. Sanoat korxonalarini bugungi kun holati va unda tijorat banklarini o`ziga xos iqtisodiy ahamiyati.

2.1. Namangan viloyatida faoliyat ko`rsatayotgan sanoat korxonalarining iqtisodiy tahlili.

2.2. Mamlakatimizda tijorat banklari faoliyati va ularni iqtisodiy taraqqiyotidagi mezonlari masalalari.

III-bob. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida sanoat korxonalarini rivojlantirishda tijorat banklari kapitallaridan unumli foydalanishning istiqbollari.

3.1. Sanoat korxonalarida bank kapitallaridan samarali foydalanishning istiqbollari

3.2. Sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishning ko`paytirishda bank tizimini muvofiqlashtirish.

Xulosa va takliflar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Har qanday mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti darajasi jamiyat a`zolarining erishgan turmush darajasi bilan belgilanadi. Shu bois, respublikamiz xalq xo`jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy – ijtimoiy islohotlar jamiyat taraqqiyoti va insonlar hayot farovonligini ta`minlashga qaratilgan. Bu esa, o`z navbatida, barcha sohada iqtisodiy samaradorlik darajasini oshirishga ham bog`liqdir.

Bugungi kunda korxonalarda kapital qo`yilmalardan foydalanish asosida korxonalarni rivojlantirish iqtisodiy islohotlarning bosh maqsadlaridan biri bo`lib hisoblanadi.

Turli mulkchilik shakllari faoliyat yuritayotgan sharoitda bank, moliya sohalarini barqaror rivojlantirish bevosita mahsulot ishlab chiqarishni va mehnat munosabatlarini bozor talablariga mos ravishda tashkil etishni taqozo qiladi. Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, birinchi navbatda, barcha turdagi resurslardan samarali foydalanishga va mehnat unumdorligini oshirishda mamlakatimizdagi tijorat banklarining faoliyati bilan ham bevosita bog`liqdir. Lekin, hozirda sarflangan mehnat va moddiy resurslar hisobiga yetishtirilayotgan asosiy turdagi mahsulotlarni yetishtirish tarmoqda ishlab chiqarish samaradorligini ta`minlash imkonini bermayotir. Bundan tashqari tarmoqlarda tijorat banklari tomonidan yo`naltirilgan investitsiyalardan maqsadli foydalanmaslik, loyihalashtirishning yetarli darajada ilmiy asoslanmaganligi, investitsiyalardan samarali foydalanish madaniyatining pastligi yuqori mehnat unumdorligiga erishish imkonini cheklamoqda. Shu nuqtai – nazardan mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida turli xo`jalik shakllarida faoliyat yuritayotgan korxonalarda tijorat banklari investitsiyalaridan samarali foydalanish bo`yicha ilmiy – amaliy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hozirgi davrning eng dolzarb masalalaridan biri bo`lib hisoblanadi.

Muammoning o`rganilganlik darajasi. Sanoat korxonalarida tijorat banklari mablag`laridan foydalanish masalalari O`zbekistonda Karimov I. A., Maxmudov E. X., Alimov R. X., Jo`raev T. T., Ergashev T. E., Ro`ziyeva D. I., Yuldosheva S. N., Ortiqov A.A. Abdullaev Sh., Saidboev Sh.D, Berjonov A., Sirojiddinov I. va boshqalar tomonidan nazariy jihatdan o`rganilgan hamda ilmiy ishlarida ushbu masalaning amaliy jihatlari keng yoritilgan.

Mustaqillikka erishganimizdan buyon mazkur masala yuzasidan ko`plab ishlar ilmiy ishlar qilingan bo`lsada biroq, Respublikamiz korxonalarini rivojlantirishda tijorat banklarini o`rni va ularnin kapitallaridan samarali foydalanish masalalari bozor iqtisodiyoti qonunlari va bugungi kundagi xo`jalik yuritish mexanizmlari talablaridan kelib chiqqan holda yetarli darajada o`rganilmagan. Shu sababli tadqiqot mavzusi ushbu masalaga bag`ishlanganligi uning ahamiyatini oshiradi.

Tadqiqot maqsadi. Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida turli xo`jalik shakllarida faoliyat yurituvchi korxonalarida tijorat banklari investitsiyalaridan foydalanishning o`ziga xos xususiyatlarini nazariy va amaliy jihatdan asoslash, kapital qo`yilmalardan samarali foydalanish hamda mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo`yicha ilmiy asoslangan, amaliy ahamiyatga molik taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning predmeti va ob`ekti. Tadqiqotning predmeti bo`lib iqtisodiy o`sish kontseptsiyasi, investitsiya oqimining o`sib borish qonuni, sanoat korxonalarida tijorat banklari mablag`laridan oqilona foydalanish darajasini aniqlash hamda uni intensiv rivojlantirish hisoblanadi.

Tadqiqotning ob`ekti bo`lib respublikamiz va viloyatimizda turli mulkchilikka asoslangan ko`p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish jarayonida monopol va erkin raqobatli bozorlar sharoitida faoliyat yurituvchi sanoat korxonalarini mamlakatimizda faoliyat ko`rsatayotgan tijorat banklari bo`lib hisoblanadi.

Tadqiqotning usuli va uslubiyoti. Tadqiqotning nazariy va uslubiy asosi bo`lib «iqtisodiy o`sish nazariyasi», mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov asoslab bergan O`zbekistonni bozor iqtisodiyotiga o`tishining “O`zbek modeli” va

iqtisodchi olimlarning olib borgan tadqiqotlari natijalari xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlar, Respublika Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoishlaridan hamda Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy matematik, tizimli va taqqoslama tahlil, hisob – tahlil, statistik guruhlash, monografik kuzatish va boshqa usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- sanoat korxonalarida tijorat banklari investitsiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi;

- korxonalarda tijorat banklari kapitallaridan foydalanishning mohiyati va ahamiyati o'rganildi;

- mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida sanoat korxonalarining tarkibi va tuzilishi aniqlandi;

- tijorat banklari faoliyatlarning iqtisodiy asoslash usullari ishlab chiqildi;

- hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda tijorat banklari investitsiyalardan foydalanishni loyihalashtirish va ixtisoslashtirish mexanizmi ishlab chiqildi;

- sanoat korxonalarida faoliyatida tijorat banklarining istiqbolli yo'llari ilmiy asoslab berildi.

Bitiruv malakaviy ishini tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

I – bob. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda tijorat banklarining roli va ahamiyati.

1.1. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda bank tizimini va uning nazariy asoslari.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tishning kontseptsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosini bozor iqtisodiyotini shakllantirishning milliy modeli tashkil etadi. Bu milliy modelning asosini xususiy korxonalariga keng yo'l berish, mulkni keng yo'nalishda xususiylashtirish, tadbirkorlik va mayda ishlab chiqarishni rivojlantirish, qo'shma korxonalarni ko'paytirish, jahon iqtisodiy integratsiyasiga qo'shilib borish, erkin baholar tizimini joriy etish, zamonaviy moliya - bank tizimini yaratish, bozorga xos pul muomilasini paydo qilish va umuman raqobatlashish ta'sirini kengaytirib borish kabilar tashkil etadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mazmunini milliy iqtisodiyotni yuzaga keltirish, uni shakllantirish tashkil etadi. Mustaqil milliy iqtisodiyotsiz siyosiy mustaqillik e'tiborsiz bo'lib qoladi. Mustaqillik milliy iqtisodiyot davlatning o'z moliya-kredit, pul tizimlarini mavjud bo'lishini talab etadi. Bu tizimni tashkil etish zarurati eng avvalo mamlakatimizning iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqsa, so'ngra biz qurmoqchi bo'lgan bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqadi. Bunda milliy pul birligini joriy qilish, yangi banklar tizimini ayniqsa keng tarmoqli tijorat banklari tarmoqlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, bank tizimi zimmasiga iqtisodiyotimizning yetakchi yani lokomotiv va xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida pul oqimlarining mutanosib aylanishini ta'minlovchi o'ziga xos qon tomiri vazifasi yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 18 yanvarda o'tkazilgan yig'ilishida belgilab berilgan 2013 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga

o'shirilgan chora-tadbirlar natijasida respublikamizda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiyotning mutanosibliigi hamda yuqori iqtisodiy o'sishi ta'minlandi.

Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek, "O'tgan davrda biz duch kelgan og'ir sinov va muammolarga qaramasdan, mustaqillik yillarida O'zbekiston iqtisodiyoti qariyb 5 barobar, aholi daromadlari jon boshiga o'rtacha 8,7 barobar o'sganini, mamlakatimiz aholisi bu davrda 1,5-marta ko'payib, 2015-yilning 1-yanvarida 31 million 500 ming kishini tashkil etishini inobatga oladigan bo'lsak, bunday ulkan natijalarga erishganimizni, ochig'ini aytganda, ba'zan tasavvur qilishning o'zi ham qiyin."¹

Bugungi kunda mamlakatimizning tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 15 foizdan oshmasligi, ichki qarzimiz umuman yo'qligi, eksport hajmi, oltin-valyuta zahiralарimiz barqaror sur'atlar bilan oshib borayotganida ham erishgan ulkan natijalarimiz isbotini ko'rish, kuzatish qiyin emas.

Jahon miqyosidagi global iqtisodiy inqiroz hali-beri davom etayotganiga qaramasdan, dunyoning sanoqli davlatlari qatorida O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning yillik o'sish sur'atlari so'nggi 10 yil davomida 8 foizdan ziyod bo'lib kelmoqda. 2015 yilda ham ana shunday yuksak o'sish sur'atlari ko'zda tutilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan olamshumul o'zgarishlar, shahar va qishloqlarimizning qiyofasi tobora chiroy ochib, aholimizning farovonligi yuksalib borayotgani haqida gapirganda, bunday yangilanishlarning g'oyat muhim manbalari – avvalo, odamlarimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi va kayfiyati tubdan o'zgarib, ularning yon-atrofimizda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga daxldorlik hissi, ertangi kunga munosabati va ishonchi tobora mustahkamlanib, siyosiy saviyasi va huquqiy madaniyati o'sib borayotgani haqida alohida to'xtalishni o'rinlidir. Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyatimiz hayotining turli sohalarida 8 ming 100 dan ziyod nodavlat notijorat tashkiloti faoliyat ko'rsatmoqda. Bu esa 2010 yilga nisbatan 1,6 martaga ko'pdir.

¹ Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi

Iqtisodiyotni demokratlashtirish va erkinlashtirish sohasiga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini yaratishga alohida e'tibor qaratildi. "Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida", "Raqobat to'g'risida", yangi tahrirdagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun zarur ruxsat berish tartib-taomillarining ro'yxati va turlari izchil qisqartirildi.

Keyingi yillarda ruhsat berishga oid tartib - taomillarning 160 dan ortig'i, yoki 44 foizi, litsenziyalash talab qilinadigan faoliyatning 19 turi yoki 25 foizi bekor qilinganini aytishning o'zi kifoya. Tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat organlariga taqdim etiladigan statistika, soliq va moliyaviy hisobotlarning shakli va davriyligi 1,5 – 2 marta kamaytirildi.

Tadbirkorlikning milliy an'ana va urf - odatlarimizga to'la mos keladigan yangi shakli – oilaviy biznesni rivojlantirish uchun keng shart - sharoitlar yaratildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik moliyaviy qo'llab - quvvatlashda tijorat banklarining roli juda yuqoridir. Respublikamiz Hukumati ham shu sababli mustaqillikning dastlabki yillaridanoq kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga bank xizmati ko'rsatish, ularga bank kreditlari berishning soddalashtirilgan tartib qoidalari amaliyotini belgilab berdi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek, biz uchun ustivor bo'lib qolayotgan eng muhim vazifalardan biri bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasidir. So'nggi paytda bu yo'nalishda o'ta muhim qonun xujjatlari va qarorlar qabul qilindi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni o'sish tamoillari shuningdek, ularga beriladigan imtiyozlar va yengilliklar tizimi aniq belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2015 yil 16 - yanvarda bo'lib o'tgan Vazirlar Mahkamasi majlisida belgilab bergan va tarkibiy o'zgarishlar jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirish, mamlakatimiz eksport salohiyatini mustahkamlash, xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va aholi bandligini

oshirishga qaratilgan 2015 - yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalari va yo‘nalishlarini amalga oshirish maqsadida joriy yilning birinchi choragida makroiqtisodiy barqarorlik hamda iqtisodiyotning barqaror yuqori o‘shirish sur‘atlarini saqlashga qaratilgan kompleks chora – tadbirlar qabul qilindi va ularning ijrosi ta‘minlandi.

Xususan, davlatimiz rahbari tomonidan sanoat ishlab chiqarishini tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, muhandislik - kommunikatsiya va yo‘l – transport infratuzilmasini rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish, shuningdek, tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo‘yicha o‘rta muddatli dasturlar ishlab chiqilib, tasdiqlandi. Ushbu dasturlarning amalga oshirilishi iqtisodiyotimizni yanada yuksaltirish, ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, muhim sanoat tarmoqlarini rivojlantirishni yangi, yuqori bosqichga ko‘tarish, zamonaviy va rivojlangan infratuzilmani shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur dasturlar doirasida 2015 - 2019 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo‘yicha umumiy qiymati 40,8 milliard dollarlik 846 loyiha, muhandislik - kommunikatsiya va yo‘l - transport infratuzilmasi obyektlarini qurish hamda rivojlantirishga doir umumiy qiymati 9,8 milliard dollarlik 141 loyiha, shuningdek, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo‘yicha umumiy qiymati 5 milliard dollardan ziyod 602 loyihani amalga oshirish va 1,2 mingdan ortiq yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirish ko‘zda tutilgan.

Yetakchi sanoat tarmoqlarini tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiya va faol diversifikatsiya qilishni kengaytirish hamda chuqurlashtirish hisobidan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiyot raqobatbardoshligini yanada oshirish 2015 yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalari va yo‘nalishlarini amalga oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida shu yilning birinchi choragida iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirishni yanada chuqurlashtirish, asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning

yuqori o‘shish sur‘atlarini saqlash va keyingi choraklarda yanada iqtisodiy rivojlanish uchun mustahkam asos yaratish ta‘minlandi.

2014 - yilning birinchi choragiga nisbatan yalpi ichki mahsulot hajmi 7,5, sanoat mahsulotlari – 7,9, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari – 6,3, xizmatlar hajmi 13,1 foizga o‘ydi. (1.1.1-jadval) Makroiqtisodiy barqarorlik davlat byudjetining yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz profitsiti, tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosi, shuningdek, soliq yukini 20,1 foizdan 19 foizga bosqichma-bosqich kamaytirish hisobidan yanada mustahkamlandi.

1.1.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasini 2015-yilning birinchi choragida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy ko‘rsatkichlari

(2014-yilning shu davriga nisbatan foiz hisobida)

T/r	Ko‘rsatkichlar	O‘shish sur‘atlari
1	Yalpi ichki mahsulot	107,5
2	Sanoat mahsulotlari	107,9
3	Iste‘mol tovarlari	111,2
4	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	106,3
5	O‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi	108,7
6	Qurilish ishlari	118,9
7	Chakana savdo aylanmasi	115,2
8	Pullik xizmatlar	110,1
9	Jami xizmatlar	113,1

Manba: O‘zbekiston Respublikasini 2015 - yilning I choragida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari

2011 - 2015 yillarda respublika moliya – bank tizimini yanada isloh etish va barqarorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari dasturi doirasida amalga oshirilgan chora - tadbirlar banklar jami kapitalining 24,5 foiz va aktivlarining 28,1 foiz ko‘payishiga xizmat qildi.

Bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasi eng kam xalqaro standartlardan qariyb 3 barobardan ziyod darajada saqlandi. Bank tizimi likvidligi esa minimal talablardan 2 barobar ortadi. Joriy yil boshidan buyon Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi 10 foizdan 9 foizga tushirilgani iqtisodiyotni kredit bilan ta'minlash hajmini 1,3 barobar oshirishda rag'batlantiruvchi omil bo'ldi.

Iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlari iste'mol talabini rag'batlantirishga doir amalga oshirilgan chora-tadbirlar bilan birga aholi ichki yalpi daromadini 17,4 foizga oshirishga yordam berdi. Bu esa chakana savdo aylanmasi hajmi 15,2 foiz va aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish 10,1 foizga oshishida muhim omil bo'ldi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, yuqori texnologiyali muhim quvvatlarni ishga tushirishni jadallashtirish, transport va kommunikatsiya infratuzilmasini izchil rivojlantirish asosida tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirishga qaratilgan investitsiya siyosatining faol amalga oshirilishi natijasida joriy yilning birinchi choragida iqtisodiyotda o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2,7 milliard dollarni tashkil qildi va 2014 - yilning shu davriga nisbatan 8,7 foizga o'sdi.

Investitsiya faolligining yuqori sur'atlari qurilish-montaj ishlarini tashkil etishni takomillashtirish, pudratchi tashkilotlarning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va mustahkamlashga doir chora-tadbirlar bilan bir qatorda qurilish ishlari hajmini 18,9 foiz oshirish imkonini berdi.

O'zlashtirilgan investitsiyalar umumiy hajmining 660 million dollardan ziyodi yoki 24,3 foizini xorijiy investitsiyalar va kreditlar (o'sish 12,1 foiz), jumladan, 580 million dollarini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (o'sish 10 foiz) tashkil qildi. Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan iqtisodiyotning strategik tarmoqlarida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun o'zlashtirilgan mablag'lar hajmi 5,6 foiz o'sdi va 81,1 million dollarni tashkil qildi.

Joriy yil boshidan buyon o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibida xo'jalik subyektlarining o'z mablag'lari qariyb katta ulushni (umumiy hajmning 36,3 foizi) tashkil etdi va 2014 – yilning shu davriga nisbatan bu ko'rsatkich 28,3 foiz

ko'paydi. Bu ishlab chiqarishlarni diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha tarmoq dasturlari, shuningdek, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlar hayotga faol tatbiq etilayotgani samarasidir.

Umuman, joriy yil boshidan buyon 2015 – yilgi Investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 4,8 milliard dollardan ziyod 53 yangi investitsiya loyihasini amalga oshirish boshlandi, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlarni amalga oshirish doirasida 434 yangi ishlab chiqarish obyekti foydalanishga topshirildi. Jumladan, qurilish materiallari sanoatida 179, oziq-ovqat sanoatida 141, to'qimachilik sanoati va tikuvchilik sohasida 99, mebel va qog'oz sanoatida 56, kimyo va neft - kimyo sanoatida 37 va boshqa tarmoqlarda loyihalar amalga oshirildi.

Modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish, yangi ishlab chiqarish obyektlari va quvvatlarini ishga tushirish sanoatning yetakchi tarmoqlarini tarkibiy o'zgartirish hamda diversifikatsiya qilish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish imkonini berdi. Xususan, shu yilning birinchi choragida sanoatning yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan tarmoqlarini jadal rivojlantirish ta'minlandi. Jumladan, yengil sanoat (paxta tozalash sohasidan tashqari) 2014 - yilning shu davriga nisbatan 120 foiz (jumladan, ip – gazlama ishlab chiqarish 120,1, trikotaj mahsulotlari 114,5, tikuvchilik mahsulotlari 120,6, charm mahsulotlari 118,4 foiz), qora metallurgiya 111,9, yog'ochni qayta ishlash 108,9, oziq - ovqat 114,8, kimyo va neft - kimyo tarmog'i 109,3 foizga o'sishi ta'minlandi. Traktorlar, neft va gaz o'tkazish quvurlari, karbamid, xlorli kaliy, muzlatgich va sovutgichlar, ip - gazlama, trikotaj matosi, trikotaj, tikuvchilik va paypoq mahsulotlari, charm va attorlik buyumlari, un, sut, dori - darmonlar va boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish sezilarli ravishda ko'paydi.

2015 - yilda tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida joriy yilning birinchi choragida 504 loyiha bo'yicha qiymati 620 milliard so'mdan ortiq

mahsulot ishlab chiqarildi, import o'rnini bosish bo'yicha hisoblab chiqilgan samara 260 million dollardan oshdi. Mazkur loyihalarni amalga oshirishda 430 dan ortiq yangi turdagi mahsulotlar, jumladan, ekskavator ehtiyot qismlari, «Damas» avtomobilining shtamplangan kuzov detallari, kompressor agregatlari ehtiyot qism va uzellari, motor moylari, gidravlika suyuqliklari, shaxta vagonchalari, yangi turdagi maishiy muzlatgich va sovutgichlar, elektr pechlar, maishiy yoritgichlar, energiya tejaydigan yorug'lik diodli chiroqlar, maishiy texnika uchun butlovchi buyumlar, velosipedlar, sport trenajyorlari va boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Ishlab chiqarilayotgan iste'mol tovarlari turlarini kengaytirishga doir amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar doirasida yil boshidan buyon 19 turdagi yangi tayyor tikuvchilik buyumlari va ularning 151 yangi modellari, 98 turdagi yangi qandolat, meva-sabzavot va go'sht - sut, konserva mahsulotlari ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Natijada iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 11,2, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari 19,2 va nooziq - ovqat mahsulotlari 6 foiz ko'paydi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida joriy yilning o'tgan davrida yirik korxonalarda 8,1 million dollarlik ma'naviy va jismoniy eskirgan 130 uskuna almashtirildi, ommaviy ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgan innovatsiya mahsulotlari hajmi 1,7 barobar ko'paydi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida sanoatda mehnat unumdorligi 6,1 foiz o'sdi, yirik korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxi o'rtacha 9, yalpi ichki mahsulotning energiya iste'moli hajmi 10,1 foiz kamaydi.

Jahon bozorida kon'yunkturani oldindan taxmin qilib bo'lmasligi va uning beqarorligi kuchayib borayotganiga qaramasdan, tashqi bozorda xaridorgir mahsulot ishlab chiqarish hajmi va turlarini kengaytirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish va eksportchi korxonalarni o'z mahsulotlarini tashqi bozorga chiqarishda har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi eksport hajmini 13,9 foiz oshirish imkonini berdi.

Joriy yil boshidan buyon 146 yangi korxonalar eksport faoliyatiga jalb etildi, gaz, elektr va kombinatsiyalangan maishiy plitalar, yangi turdagi kabel-o'tkazgich mahsulotlar, avtomobil o'rindiqlari, avtomobillarning shtamplangan va payvandlangan detallari, suyuq va gazsimon argon, lok-bo'yoq mahsulotlari, gigiyena buyumlari, konservalangan meva - sabzavot mahsulotlari kabi qiymati 40 million dollardan ortiq yangi turdagi 102 tovarni eksport qilish o'zlashtirildi.

1.2. Respublikamizda tijorat banklarining sanoat korxonalarini rivojlantirishdagi o'rni va roli.

2013 yilda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YaIM) ishlab chiqarish hajmi 8,0 foizga o'sib, 119,0 trln. so'mni tashkil etdi. Yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tizimli va islohotlarning izchil amalga oshirilishi hisobiga erishilmoqda. Xususan,

- tashqi va ichki bozor talablari asosida iqtisodiyotni chuqur tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiyalash jarayonlarining izchil amalga oshirilayotganligi;
- ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilashni jadallashtirish, yo'l - transport va kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish hisobiga iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish;
- bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, raqobatni kuchaytirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab - quvvatlash hamda ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan dasturiy vazifalarning o'z vaqtida bajarilayotganligi;
- ichki talabni aholi bandligi va real daromadlarining oshishini ta'minlash hisobiga rag'batlantirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi;
- qishloq xo'jaligini isloh etish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, qishloqda bozor munosabatlarini joriy etish va xususiy mulkchilik shakllarini rivojlantirish, fermerlik harakatini qo'llab - quvvatlash uchun huquqiy, tashkiliy

hamda moliyaviy shart-sharoitlarning yaratib berilishi, qishloq xo'jaligida ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilish ko'lamining kengaytirilishi;
– respublika moliya-bank tizimini yanada rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, uning faoliyatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish borasida keng ko'lamli chora - tadbirlarning amalga oshirilishi iqtisodiyotning yuqori sur'atlarda o'sishiga zamin yaratmoqda.

2013 yilda mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hajmlarining yuqori sur'atlarda o'sishi kuzatildi.

Xususan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmi 2012 yilga nisbatan 8,8 foizga oshdi. Sanoatda yuqori o'sish sur'atlari yuqori texnologiyalarga asoslangan mashinasozlik va metallni qayta ishlash (o'sish sur'ati 21 foiz), engil sanoat (13 foiz), qurilish materiallari (13,6 foiz) hamda oziq-ovqat (9 foiz) sanoati tarmoqlarida kuzatildi.

2013 yilda qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2012 yilga nisbatan 6,8 foizga oshdi. Shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlarini etishtirish 6,4 foizga, chorvachilik mahsulotlarini etishtirish esa 7,4 foizga oshdi.

2013 yilda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 13,5 foizga o'sib, uning YaIM tarkibidagi ulushi 53,0 foizni tashkil etdi.

Jumladan, yuqori o'sish sur'atlari kompyuter dasturlash (30,4 foiz), moliyaviy xizmatlar (29,3 foiz), sog'liqni saqlash (27,2 foiz), qurilish (25,4 foiz), maishiy xizmatlar (23,2 foiz), aloqa va axborotlashtirish (21,9 foiz), qishloq xo'jaligining texnik vositalarini ta'mirlash (18,2 foiz) hamda savdo va umumiy ovqatlanish (16,6 foiz) xizmatlarini ko'rsatish sohalarida kuzatildi.

Bunday yuqori o'sish ko'rsatkichlariga erishilishida «2013-2016 yillarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi» doirasida 2013 yilda 13 mingdan ortiq yangi xizmat ko'rsatish va servis sohasi korxonalari, jumladan, savdo-maishiy komplekslar, minibanklar va sug'urta kompaniyalari filiallari va boshqa korxonalar tashkil etilganligi muhim rol o'ynadi.

Ichki talabni rag'batlantirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida o'tgan yilda chakana tovar aylanmasining 14,8 foizga o'sishi kuzatildi. 2013 yilda o'zlashtirilgan (asosiy kapitalga yo'naltirilgan) investitsiyalarning umumiy hajmi 2012 yilga nisbatan 11,3 foizga ortib, 13,0 mlrd. dollarni tashkil etdi. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar umumiy hajmining deyarli yarmi, ya'ni 47 foizi xususiy investitsiyalar – korxonalar va aholining shaxsiy mablag'lari hisobidan moliyalashtirildi. 2013 yilda mamlakatimiz iqtisodiyotiga 3 mlrd. dollardan ortiq miqdorda xorijiy investitsiyalar jalb qilingan bo'lib, uning 72 foizdan ziyodi yoki 2,2 mlrd. dollari to'g'ridan - to'g'ri xorijiy investitsiyalar hissasiga to'g'ri keladi.

O'zlashtirilgan kapital qo'yilmalarning asosiy qismi –70 foizdan ortig'i, birinchi navbatda, ishlab chiqarish ob'ektlarini qurishga va jihozlashga, shu jumladan, qariyb 40 foizi eng yangi zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari va asbob-uskunalarini xarid qilishga sarflangan.

Ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiyalarning 17,4 foizi transport va aloqa, 18,0 foizi yoqilg'i – energetika, 4,2 foizi qishloq xo'jaligi va 3,3 foizi metallurgiya tarmoqlariga yo'naltirildi. Noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi qariyb 30,0 foizni, jumladan, uy-joy qurilishining ulushi 20,9 foizni, ta'lim sohasi 2,7 foizni va sog'liqni saqlash sohasi ulushi 2,9 foizni tashkil etdi.

Bank tizimi har qanday mamlakatning moliya tizimining asosidir. Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan zamonaviy iqtisodiyotda bank tizimi juda muhim rol o'ynaydi. Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, xo'jalik aloqalarining samarali yo'lga qo'yilishi, iqtisodiy resurslarning jamlanishi va ulardan yuqori samara bilan foydalanilishi bank tizimining samarali ishlashi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari korxonalar o'z iqtisodiy aloqalarini shu jumladan o'z tashqi iqtisodiy aloqalarini zamonaviy bank tizimisiz amalga oshira olmaydilar.

Bugungi kunda O'zbekiston o'zining butun dunyo mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarini amalga oshirishiga xizmat qilayotgan zamonaviy bank tizimiga egadir.

Bugungi kunda Respublikamizda 26 ta tijorat banklari mavjud bo`lib shulardan 3 tasi davlat, 12 tasi xususiy, 5 tasi chet el va qolganlari aksionerlik tijorat banklaridir. Respublikamizda o`z kapitalining hajmi, aktivlarining miqdori va bajarayotgan ishlari ko`lami bo`yicha yirik moliya muassasalaridan hisoblangan aksionerlik tijorat banklarining barchasi ham hukumatimiz tomonidan o`tkazilayotgan iqtisodiy islohatlarda ayniqsa sanoat va qishloq xo`jaligi sohalarini rivojlantirish, shuningdek, qishloq joylarda bozor infratuzilmalarini shakllantirish, kichik va o`rta biznes hamda xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo`llab - quvvatlash, bank xizmatlari bo`yicha sog`lom raqobat muhitini yaratish borasida faol ish yuritmoqda.

Global makonda moliyaviy-iqtisodiy inqiroz hamon davom etayotgani, tovar bozorlarida talabning keskin kamayib borayotgani va kon`yunkturaning beqarorligi ko`pgina davlatlarda iqtisodiy o`sish sur`atlarining pasayishiga, investitsiya faolligining susayishi va chetga kapital chiqib ketishining kuchayishiga olib kelmoqda. Mana shunday keskinlashuv va jahon bozoridagi noaniq vaziyat keyingi yillarda ham davom etishi mumkin. O`z-o`zidan ayonki, kutilayotgan barcha salbiy holatlarning oldini olish, ularni bartaraf qilish uchun barchamizdan hushyorlik, sezgirlik, safarbarlik va rejalarimizga, avvalo, Mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasiga tegishli o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish talab qilinadi.

Bugungi kunda yaqin va uzoq atrofimizda, butun jahon miqyosida siyosiy, iqtisodiy vaziyat tobora keskinlashib borayotganini inobatga olgan holda, eng muhim ustuvor vazifalarimiz qatorida iqtisodiyotimizda tarkibiy o`zgarishlarni izchil chuqurlashtirish, ishlab chiqarishni uzluksiz texnik va texnologik yangilab borish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlarini keng joriy etishni asosiy maqsadimiz sifatida ko`rishimiz kerak.

Albatta, O`zbekistonda mustaqil taraqqiyotimizning dastlabki kunlaridan boshlab ishlab chiqarishni tarkibiy yangilash, uni zamonaviy va yuqori texnologiyalar asosida jadal rivojlantirish masalasiga jiddiy e`tibor qaratilganini qayd etish o`rinlidir.

Biz uchun mutlaqo yangi bo'lgan tarmoqlar va yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish korxonalari butunlay yangitdan tashkil etildi. Hozirgi kunda bu korxonalarning tayyor mahsulotlari jahon bozorida munosib o'rin egallamoqda.

Bu borada gap avtomobilsozlik sanoati, jumladan, yengil avtomobillar, yuk va maxsus mashinalar, dvigatellar va asosiy butlovchi qismlar ishlab chiqarish haqida, shuningdek, yangi modeldagi xorijiy texnikalarni o'zlashtirish negizida zamonaviy qishloq xo'jaligi mashinasozligi, neft-kimyó va neft-gaz sanoatini rivojlantirish, temir yo'l vagonlari, maishiy elektronika, farmatsevtika va mikrobiologiya tarmoqlari haqida bormoqda.

Aynan tub tarkibiy o'zgarishlar, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi va zamonaviy korxonalarni barpo etish, faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish quvvatlarini keng miqyosda yangilash va modernizatsiya qilish borasida puxta o'ylangan strategiya tufayli mamlakatimizning yalpi ichki mahsulotida sanoatning ulushi 1991-yildagi 14 foizdan bugungi kunda qariyb 25 foizga o'sdi. Ayni paytda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining ulushi 34 foizdan 17 foizga kamaydi.

Hech shubhasiz, biz bu ishlarni aslo susaytirmasligimiz, investitsiya siyosati va dasturlarimizni ham ana shu maqsadlarga mos holda amalga oshirishimiz darkor.

Ishlab chiqarayotgan mahsulotlari bugun xalqaro bozorda, ertaga esa ichki bozorda hech qanday qiziqish uyg'otmaydigan eski ishlab chiqarish quvvatlaridan voz kechish, iqtisodiy taraqqiyotimizning lokomotivlari bo'lgan zamonaviy korxonalar va yuqori texnologiyalarga asoslangan komplekslarni barpo etish bilan birga, yetakchi tarmoq va zarur infratuzilmalarni modernizatsiya qilish bo'yicha chuqur va puxta o'ylangan dasturlarni izchil amalga oshirish kerak.

Bizning jahon eksport bozorida mustahkam o'rin olishimiz uchun, mamlakatimizda moliyaviy va iqtisodiy barqarorlikni, aholining turmush darajasi va sifatini ta'minlash uchun ishonchli zamin yaratib beradigan, bugun hayotning o'zi talab qilayotgan eng zarur siyosat ana shundan iborat. Bir so'z bilan aytganda – sifati past, narxi baland mahsulotga yo'l qo'ymaslik kerak. Bizning e'tiborimiz

markazida turishi kerak bo'lgan eng muhim masalalardan yana biri – bu Konstitutsiyamizga muvofiq ko'p tarmoqli iqtisodiyotimizning ustuvor sohalari bo'lmish xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni tez sur'atlar bilan rivojlantirish yo'lidan barcha g'ov va to'siqlarni yo'q qilish, ularning erkinligini ta'minlashdir.

Hozirgi vaqtda ayni mana shunday o'ta dolzarb masalaning kun tartibiga keskin qo'yilishi, hech shubhasiz, shu zalda o'tirgan mulkdorlar, kichik biznes egalari va xususiy tadbirkorlar, umuman, butun xalqimizning ruhini ko'tarishga, ertangi kunga yanada katta ishonch bilan qarashiga asos beradi.

O'tgan yillar davomida xususiy mulk va investitsiyalar daxlsizligini himoya qilishga qaratilgan ishonchli me'yoriy-huquqiy asoslar yaratish, xususiy mulkdorlar uchun zarur sharoit va kafolatlarni tug'dirib berish bo'yicha ko'p ishlar qilindi. Shu yillar mobaynida iqtisodiyotimizning turli tarmoqlaridagi davlat mulki hisoblangan – shunga e'tibor bering – 31 mingdan ziyod korxonalar xususiy mulkdorlar va aksiyadorlar ixtiyoriga berildi.

Qishloq xo'jaligi, savdo, xizmat turlarining barchasi va boshqa ko'plab tarmoqlar deyarli to'liq xususiy mulk sohasiga o'tkazildi.

Xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarayotgan to'qimachilik, trikotaj, chirm-poyabzal, oziq-ovqat, farmatsevtika, mebel sanoati, uy-joy sektorida davlat mulkining ulushi keskin kamaydi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning aynan ana shunday soha va tarmoqlarida o'sish sur'atlari va mehnat unumdorligi boshqa tarmoqlarga qaraganda barqaror ravishda yuqori bo'lib kelmoqda.

Xususiy sektorning ulushi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xizmatlari, mobil aloqa tarmoqlari, qurilish ishlari va boshqa sohalarda ham yuqoridir. Bu esa, o'z navbatida, ko'p narsadan dalolat beradi.

Shundan yana bir xulosa chiqishi darkor. Ya'ni, biz iqtisodiyotimizda davlatning ulushi va o'rnini qanday bo'lishini tanqidiy ko'z bilan baholab, uni strategik hamda iqtisodiy asoslangan darajaga qadar qisqartirishimiz lozim.

Bu borada ma'muriy - buyruqbozlik tizimining hamon saqlanib qolayotgan har qanday shakllaridan voz kechib, davlat organlari, biznes va xususiy sektor

o'rtasidagi vazifalarni aniq belgilab qo'yishimiz, savdo operatsiyalarini asosan birja orqali amalga oshirish tizimiga o'tishimiz zarur. Korporativ yoki aksiyadorlik birlashmalari faoliyati samaradorligini tanqidiy baholash ham g'oyat jiddiy e'tiborni talab qilmoqda. Rivojlangan davlatlarda, ayniqsa, sanoat ishlab chiqarish sohasida, mulkchilikning ana shu shakli asosiy o'rin egallaydi. Bu boradagi amaliy tajribamiz shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda mahalliy aksiyadorlar bilan birga chet ellik investorlarning ham aksiyalarga ega bo'layotgani mulkchilikning eng maqbul va o'zini oqlayotgan shaklidir.

Hozirgi vaqtda yurtimizda 90 dan ortiq mamlakatning xorijiy kapitali ishtirokida tashkil etilgan 4 mingdan ziyod korxonalar muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Bunday samarali loyihalar haqida gapirganda, mashinasozlik sohasida AQShning "Jeneral motors", Germaniyaning "MAN", "Klaas", Yaponiyaning "Isuzu" kompaniyalari, neft-gaz sohasida Janubiy Koreyaning "Lotte kemikal" va "Kogaz" kompaniyalari, kimyo sanoatida Ispaniyaning "Maksam" kompaniyasi, to'qimachilik sanoatida Singapurning "Indorama", Janubiy Koreyaning "Deu tekstil", "Yang von", Shveysariyaning "Riter" kompaniyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida Xitoyning "Xuavey" va "ZTE", oziq-ovqat sanoatida Shveysariyaning "Nestle" kompaniyasi, qurilish materiallari ishlab chiqarishda Germaniyaning "Knauf", Xitoyning "Peng Sheng", farmatsevtika sanoatida Shveysariyaning "Nobel" kompaniyalari va shuningdek, boshqa ko'plab xorijiy investorlar ishtirokida tashkil etilgan qo'shma korxonalar haqida so'z yuritish mumkin.

Dunyoda nom qozongan bunday kompaniyalar bilan olib borayotgan hamkorligimiz qisqa vaqt ichida iqtisodiyotimiz tarmoqlarini tubdan modernizatsiya qilish, mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va uning turini ko'paytirish, jahon bozorlariga raqobatdosh yangi mahsulotlar bilan chiqish imkonini bermoqda. "Navoiy", "Angren" va "Jizzax" maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish hisobidan chet ellik investorlar bilan yo'lga qo'ygan hamkorligimiz o'zining yuksak samarasini ko'rsatmoqda.

Eng muhimi, O‘zbekistonda mahalliy va chet ellik investorlar nafaqat mablag‘ sarflab, daromad olmoqda, balki korxonalarni birgalikda boshqarmoqda, xorijlik muassislar qo‘shma korxonaga, avvalo, ilg‘or texnologiyalarni olib kirmoqda, ishlab chiqarishni zamonaviy asosda tashkil etish va boshqarishni joriy qilmoqda. Bu boradagi tajriba hamkorlikning aynan mana shu shakli eng ko‘p samara berayotgani va eng yaxshi istiqbolga ega ekanini ko‘rsatmoqda. Biz bunday korxonalar faoliyatini imkon qadar kengaytirishga tayyormiz.

Yuqorida bayon qilingan fikrlarni umumlashtirgan holda, shuni ta’kidlash kerakki, iqtisodiyot tarmoqlarida davlat ulushining mavjudligi va samaradorligini, boshqacha aytganda, “iqtisodiyotdagi davlat”ning rolini keng miqyosda tanqidiy tahlil qilish va shu asosda xususiy sektorning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ishtirokini sezilarli ravishda kengaytirish bo‘yicha yangi chora-tadbirlarni belgilash vaqti keldi.

Bunday korxonalaridagi davlat ulushini xususiy sektorga, jumladan, yangi investorlarga, ular tomonidan ana shu korxonalar negizida zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish majburiyatini qabul qilish sharti bilan nol qiymatida sotish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, demokratik va bozor islohotlari yo‘lidagi izchil harakatlarimizning mantiqi bizdan doimo ilgarilab borishni talab etayotganini ta’kidlash lozim. Bu borada jahon bozorida keskin raqobat kuchayib borayotgani ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, bunday vaziyat O‘zbekistonda xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun ularning yo‘lidagi, shuni yana ta’kidlash kerak, har qanday qarshilikni olib tashlashni dolzarb vazifa qilib qo‘ymoqda.

Bu vazifalarni amalga oshirish, o‘z navbatida, biz mamlakatimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyatining ishonchli tayanchi va poydevori deb biladigan o‘rta sinf – mulkdorlar sinfini shakllantirish va uning mavqeini mustahkamlash uchun yangi rag‘batlantiruvchi omillar va istiqbollarni yaratib beradi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

II-bob. Sanoat korxonalarini bugungi kun holati va unda tijorat banklarini o`ziga xos iqtisodiy ahamiyati.

2.1. Namangan viloyatida faoliyat ko`rsatayotgan sanoat korxonalarining iqtisodiy tahlili.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal sur`atlarda o`sib borishini ta`minlash avvalam bor korxonalarining iqtisodiy jihatdan rivojlanganlik darajasi bilan bevosita va bilvosita bog`liqdir. Shu maqsadda korxonalarni mustaqillik yillarida texnik - texnologik jihatdan yangilash, modernizatsiya qilish, zamonaviy jihozlar bilan boyitish, ishchi kuchi mehnatini tejash, chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyasini joriy etish va boshqa ko`plab ijobiy o`zgarishlar negizida albatta moliyaviy resurslar yotadi. Bu esa o`z navbatida yangidan – yangi investitsion loyihalarni talab etgan holda, uning tarkibida tijorat banklarining o`rni alohida ahamiyatga molikdir.

Viloyatimizda 2014 yil yanvar oyi bilan hududiy investitsiya dasturini bajarilishi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 noyabrdagi “O`zbekiston Respublikasining 2013 yilgi Investitsiya dasturi to`g`risida”gi PQ-1855 sonli qarori asosida viloyat hokimining 2013 yil 24 yanvardagi “Namangan viloyatining 2013 yil Hududiy investitsiya dasturi to`g`risida”gi 28 – sonli qarori qabul qilingan bo`lib. mazkur dastur asosida, barcha manbalar hisobidan 300,6 mlrd.so`m, shu jumladan, 28,0 mlrd.so`m miqdorida to`g`ridan – to`g`ri xorijiy investitsiyalar tijorat banklari orqali jalb etilishi rejalashtirilgan. Yil yakuni bilan 303,1 mlrd.so`m investitsiya kapital mablag`lar o`zlashtirilgan. Bu esa belgilangan reja topshiriq 100,8 foizga bajarilishi ta`minlangan.

Dasturga asosan jami 1078 ta loyihalar uchun 300,6 mlrd so`m mablag`lar yo`naltirilishi va buning hisobiga 11169 ta yangi ish o`rinlari yaratilishi

belgilangan. Hisobot davrida 3552 ta loyihalar amalga oshirish uchun jami 303,1 mlrd so`m, shundan, 4,7 mlrd so`m markazlashgan mahalliy byudjet, 28,9 mlrd so`m xorijiy investitsiya, 115,9 mlrd so`m tashabbaskor, 153,6 mlrd so`mi tijorat banklarining kredit mablag`lari hisobidan yo`naltirilib, foydalanishga topshirilgan. Ushbu ishlar hisobiga esa 14,2 mingta yangi ish o`rinlari yaratilgan.

Tijorat banklari moliyaviy mablag`lari hisobidan sanoat va hizmat ko`rsatish shahobchalari faoliyat yurib kelmoqda. Jumladan, aholiga zamonaviy va sifatli xizmat ko`rsatish sohasida sezilarli ishlar olib borilmoqda. Joriy yil yakuni bilan 2043 ta savdo va maishiy xizmat ko`rsatish shoxobchalari foydalanishga topshirilgan. Bu ishlarga tijorat banklari tomonidan 75,6 mlrd. so`mdan ortiq kapital mablag`lar sarflangan. Natijada 4151 dan ortiq yangi ish o`rinlari yaratilgan.

2014 – yilning yanvar oyi yakuni bilan Namangan viloyatining yalpi hududiy mahsuloti hajmlarini kuzatadigan bo`lsak, u so`nggi yillarda rejaga nisbatan doimo yuqori bo`lganligini kuzatish mumkin. Bu esa viloyatimiz iqtisodiyotidagi tarmoqlarning ham o`ziga xos tartibda rivojlanayotganligini anglatsada, hali amalga oshiriladigan ishlarni talaygina ekanligini ham bildiradi. Jumladan, viloyatimizning mintaqaviy xususiyatlaridan kelib chiqib, qishloq ho`jaligi mahsulotlarni saqlash va dastlabki ishlov berish, transport va aloqa tizimini rivojlantirish, qishloq aholi qo`rg`on (punkt)lariga sanoat tarmoqlarini olib kirish, viloyatimiz shahar va tumanlarida qo`shma korxonalarini tashkil etish, mavjudlarini faoliyatini takomillashtirish, bog`dorchilik, chorvachilikka ixtisoslashgan hududlarda qayta ishlash korxonalarini tashkil etish shular jumlasidandir. Shu xususida sanoat korxonalariga tijorat banklari tomonidan ajratiladigan investitsiyalar ko`lamini ko`paytirish o`zining ijobiy samarasini berishi tabiiy holdir.

Namangan viloyatining 2014 yil yanvar – mart oylaridagi dastlabki iqtisodiy ko`rsatkichlari (2.1.1-jadval) ni taxliliga to`xtaladigan bo`lsak, yalpi hududiy mahsulot 823,4 mlrd. so`mni tashkil etgani holda 2013 yilning yanvar - mart oylariga nisbatan foizda 110,5 foizga o`sganligini kuzatishimiz mumkin.

Sanoat mahsulotlari esa 422,3 mlrd. so`mni yoki 112,5 foizni, qishloq xo`jaligi mahsuloti 124,7 mlrd. so`mni yoki 106,4 foizni, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar esa, 218,0 mlrd. so`mni tashkil etgani holda 2013 yilni shu davriga

2.1.1-jadval

Namangan viloyatining 2014 yil yanvar-mart oylaridagi iqtisodiy ko'rsatkichlari*

	Mlrd. so'm	2013 yilning yanvar - mart oylariga nisbatan foizda
Yalpi hududiy mahsulot	823,4	110,5
Sanoat mahsuloti	422,3	112,5
Qishloq xo'jaligi mahsuloti	124,7	106,4
<i>Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar</i>		
Qurilish ishlari	104,5	103,4
Chakana tovar aylanmasi	773,2	116,4
Xizmatlar, jami	729,2	120,6
Tashqi savdo aylanmasi, mln AQSh doll.	70,9	119,2
Eksport	24,2	100,5
Import	46,7	132,0
Qoldiq	-22,5	X

Manba: Namangan viloyat Statistika boshqarmasi

*) Dastlabki ma'lumot

nisbatan 125,8 foizga o`sganligini kuzatish mumkin. Shuningdek qurilish ishlari, chakana tovar aylanmasida, xizmatlar, tashqi savdo aylanmasi, eksport va importda ham o`shish holati kuzatilgan.

2014 yil yanvar holati bilan foydalanishga topshirilgan ishlab chiqarish ob`ektlar bo`yicha tahlil etadigan bo`lsak, ishga tushirilgan ishlab chiqarish ob`ektlari soni rejaga nisbatan, 102,3 foizga, ya`ni 393 ta rejalashtirilgan bo`lsa, amalda bu ko`rsatkich 402 tani tashkil etdi. Bunga mos ravishda viloyatimiz bo`yicha yaratilgan ish o`rinlari soni 2014 yilning yanvar oyidagi ma`lumotga asosan 7743 tani tashkil etdi. (2.1.2 - jadval)

Jumladan, Namangan shahrida 68 ta (reja 68 ta), Mingbuloq tumanida 21ta (19ta), Kosonsoy tumanida 29ta (27ta), Namangan tumanida 26ta (25ta), Norin tumanida 23 ta (23 ta), Pop tumanida 31 ta (29 ta), To`raqo`rg`on tumanida 35 ta (35 ta), Uychi tumanida 36ta (35ta), Uchqo`rg`on tumanida 48 ta (47ta), Chortoq tumanida 31ta (31ta), Chust tumanida 29ta (29ta) va Yangiqo`rg`on tumanida 25ta (25ta) ishlab chiqarish loyihalari foydalanishga topshirilgan. Jadval, ma`lumotdan shu narsa aniq-ki, viloyatimizdagi barcha tuman va shaharlarda yil boshida rejalashtirilgan va ishga tushirilgan ob`ektlar soni to`liq bajarilgan, aksariyat hollarda esa bu ko`rsatkich ortig`i bilan bajarilganligini ko`rishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda eng quvonarlisi mavjud ishga tushirilgan korxonalar va xizmat ko`rsatish shahobchalarida yangi ish o`rinlarini tashkil etilganligi va eng asosiysi ushbu ob`ektlarda kasb – xunar kollejarini bitiruvchilari faoliyat ko`rsatayotganligi diqqatga sazovordir.

Chekka qishloqlarga investitsiyalarni jalb qilish qishloq infratuzilmasini shakllantirish, mazkur aholi qo`rg`onlarida yangidan barpo etilayotgan zamonaviy uy-joy qurish, zamonaviy texnika va jihozlar bilan ta`minlash, aloqa va kommunikatsiya tizimini sifatini yaxshilash masalalari ham muhim ahamiyat kasb etgan. Investitsiya manbalarini moliyalashtirish borasida Davlat siyosatini o`rni beqiyosdir. Shunday bo`lishiga qaramay, aksariyat o`zlashtirilgan investitsiyalarning qariyb 54 foizini korxonalar va aholi mablag`lari tashkil etadi. Bu mamlakatimizda soliq yukini kamaytirish va xo`jalik yurituvchi sub`ektlarning

2.1.2-jadval

Viloyatda 2014 yil yanvar holati bilan foydalanishga topshirilgan ishlab chiqarish ob'ektlari to'g'risida ma'lumot

№	Shahar, tumanlar	Ishga tushirilgan ishlab chiqarish ob'ektlari soni			Sarflangan mablag' (mln.so'm)	Yaratilgan ish o'rinlari soni
		Yillik rejasi	amalda	Rejaga nisbatan, (%)		
	Viloyat bo'yicha:	393	402	102,3	107806,7	7743
1	Namangan sh.	68	68	100,0	24659,3	1190
2	Mingbuloq	19	21	110,5	2540,2	252
3	Kosonsoy	27	29	107,4	5242,1	358
4	Namangan	25	26	104,0	12536,3	673
5	Norin	23	23	100,0	6812,7	505
6	Pop	29	31	106,9	7826,1	700
7	To'raqo'rg'on	35	35	100,0	4978,1	854
8	Uychi	35	36	102,9	19763,7	719
9	Uchqo'rg'on	47	48	102,1	8111,1	769
10	Chortoq	31	31	100,0	6627,5	586
11	Chust	29	29	100,0	3611,0	623
12	Yangiqo'rg'on	25	25	100,0	5098,6	514

Manba: Namangan viloyat Statistika boshqarmasi

investitsiya faolligini rag`batlantirish bo`yicha olib borilayotgan soliq siyosati qanchalik to`g`ri ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mamlakatimizda so`nggi yillarda soliq yukini kamayib borishi 5 % ga, bank qayta moliyashtirish foiz stavkalari 14 foizdan 2013 yilda 12 foizga, 2014 yilda 10 foizga hozirda esa ya`ni, 2015 yildan boshlab bu ko`rsatkich 9 foizga kamaytirilganligi tadbirkorlar uchun juda katta imtiyozlarni bergan holda ishlab chiqarish sohalarini rag`batlantiradi va mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini yanada oshishiga sabab bo`ladi.

Xususan, shoxobchalarni 715 tasi chakana savdo, 90 tasi umumiy ovqatlanish, 28 tasi guzar, 269 tasi sartaroshxona, 122 tasi kiyim tikish va ta`mirlash, 117 tasi poyabzal tikish va ta`mirlash, 67 tasi maishiy texnika ta`mirlash ustaxonalari, 30 tasi mebel yasash va ta`mirlash, 104 tasi avtomobil va boshqa texnikalarni ta`mirlash ustaxonalari, 19 tasi suratxona va 482 ta boshqa turdagi xizmat ko`rsatish shoxobchalar faoliyat yuritmoqda.

Shuningdek, 2014 yil yanvar holati bilan 402 ta (yengil sanoatda 127 ta, oziq-ovqat sanoatida 124 ta, qurilish materiallari sanoatida 103 ta, mashinasozlik 4 ta, 44 ta boshqa sohalarda) ishlab chiqarish ob`ektlari foydalanishga topshirilgan. **(2.1.3-jadval)**. Ushbu loyihalarda jami 107,8 mlrd.so`m mablag` sarflangani holda 38,3 mlrd.so`m mablag`i tijorat banklarining krediti, 65,6 mlrd.so`mi o`z mablag`i va 3,9 mlrd.so`mi xorijiy investitsiyalar bo`lib, 7743 ta yangi ish o`rinlari hamda yiliga 124,2 mlrd.so`mlik mahsulot ishlab chiqarish quvvatlari yaratilgan. Mamlakatimizda tarkibiy o`zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo`lib kelmoqda. Investitsiya muhiti – bu mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga ta`sir ko`rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, me`yoriy – huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart – sharoitlar majmuidir. Investitsiya muhiti eng avvalo quyidagi iqtisodiy omillar orqali belgilanadi: tabiiy shart – sharoitlar, shu jumladan foydali qazilmalar zahiralari, ishchi kuchi malakasi va o`rtacha ish haqi darajasi, iqtisodiy kon`yunktura holati, ichki bozor sig`imi hamda tovarlarni tashqi bozorda sotish imkoniyatlari, tijorat banklarining kredit tizimi

2.1.3-jadval

Namangan viloyatida 2014 yil yanvar holati bilan foydalanishga topshirilgan ishlab chiqarish ob'ektlari to'g'risida ma'lumot

Shu jumladan sohalar kesimida	Ishga tushirilgan ishlab chiqarish ob'ektlari soni	Sarflangan mablag' mln.sò'm	Yaratilgan ish o'rinlari soni
Umumiy:	402 ta	107806,7	7743
Yengil sanoatda	127	45643,8	3623
Oziq-ovqat sanoatida	124	22764,9	1335
Qurilish materiallari sanoatida	103	21552,7	1950
Mashinasozlik	4	2505,5	55
Boshqa sohalarda	44	15339,8	780

Manba: Namangan viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumoti

holatiga, soliqqa tortish darajasi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganligi, xorijiy kapitalga nisbatan davlat siyosati, unga nisbatan imtiyozli shart-sharoitlarning belgilanganligi va boshqalarga bog`liq bo`ladi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan buyon qulay investitsiya muhitini yaratish davlatimiz iqtisodiy siyosatining markaziy masalalaridan biri bo`lib kelmoqda. Chunki taraqqiyotning o`ziga hos jihatlari aynan mamlakatning iqtisodiy siyosati bilan bir qatorda, uning siyosiy masalariga, qolaversa ijtimoiy jihatlari ham bevosita bog`liqdir.

Shuni ta`kidlash joiz-ki, modernizatsiya qilish sharoitida tijorat banklari tomonidan olib boriladigan investitsiya siyosati sanoat ulushini oshishiga ko`maklashuvchi iqtisodiyotni faol tarkibiy qayta qurishga yo`naltirilgan bo`lishi lozim. Bular avvalom bor asosiy sohalar mahsulotlari, yuqori qo`shimcha qiymat yaratuvchi sohalar, xizmat ko`rsatish sohasini sezilarli kengaytirish, kichik biznesni dinamik rivojlantirish hisobiga amalga oshiriladi. Mamlakatimizda va viloyatimizda tijorat banklari tomonidan mavjud korxonalar va sohalarni texnik va texnologik jihatdan modernizatsiya qilish, yangi yuqori texnologik ishlab chiqarishlar va sohalarni tashkil etish, innovatsiyalardan faol foydalanish mexanizmini joriy etish hisobiga mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligi bugungi kunda strategik vazifalardan biri bo`lib qoladi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarining investitsion faoliyatini yanada jonlantirish, xorijiy investitsiyalarni, avvalo to`g`ridan - to`g`ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish va ulardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish, yangi ish o`rinlarini shakllantirish va bular asosida milliy iqtisodiyotimizni barqaror va dinamik rivojlanishini ta`minlash maqsadidagi dasturi asosidagi tijorat banklarining o`rni beqiyosdir. Kapital qo`yilmalarni moliyalashtirish manbalari tarkibida bank tizimining investitsion kreditlarining ahamiyati yuqori ekanligi bilan xarakterlanadi. Buni quyidagi jadval ma`lumotlari orqali ko`rishimiz mumkin.(2.1.4-jadval)

2.1.4-jadval

2014 yilning iqtisodiyot tarmoqlarida tijorat banklari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi

(yanvar-sentyabrida)

		mlrd. so'm	Umumiy hajmga nisbatan foizda
	Jami:	23831,2	100,0
	Ishlab chiqarish tarmoqlari	14970,3	62,8
1.	Sanoat	8286,8	34,8
	shu jumladan:		
2.	Yoqilg'i - energetika sanoati	5171,7	21,7
3.	Metallurgiya	635,4	2,7
4.	Kimyo va neft - kimyo sanoati	343,0	1,4
5.	Mashinasozlik	560,2	2,4
6.	Yengil sanoat	404,1	1,7
7.	Oziq - ovqat sanoati	456,8	1,9
8.	Qurilish materiallari sanoati	360,1	1,5

Manba: Namangan viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumoti

Yuqoridagi jadval ma'lumotidan ko'rinib turibdi-ki, 2014 yilning iqtisodiyot tarmoqlarida tijorat banklari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi to'qqiz oy yakunlari bo'yicha ishlab chiqarish tarmoqlari 14970,3 mlrd. so'm umumiy hajmga nisbatan foizda (62,8), sanoat bo'yicha 8286,8 mlrd. so'm, umumiy hajmga nisbatan foizda (34,8), yoqilg'i - energetika sanoatida 5171,7 mlrd. so'm (21,7), metallurgiya 635,4 mlrd. so'm (2,7), kimyo va neft - kimyo sanoati 343,0 mlrd. so'm (1,4), mashinasozlik sanoatida esa usbu ko'rsatkich 560,2 mlrd. so'm (2,4), yengil sanoat 404,1 mlrd. so'm (1,7), oziq - ovqat sanoatida esa 456,8 mlrd. so'm (1,9), qurilish materiallari sanoati 360,1 mlrd. so'm (1,5) ni tashkil etganligi bilan izohlanadi.

2.2. Mamlakatimizda tijorat banklari faoliyati va ularni iqtisodiy taraqqiyotidagi mezonlari masalalari.

Mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotida sanoat korxonalarining o'rni qanchalik muhim bo'lsa, barcha moliyaviy munosabatlarni tartibga solib turuvchi asosiy moliyaviy institutlardan biri bu – bank tizimidir.

Ta'kidlash joiz-ki, bugungi kunda yurtimizdagi barqaror iqtisodiy vaziyat ko'p jihatdan banklarimiz faoliyatiga bevosita bo'g'liqdir. Respublikamizning etakchi banklari – Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, «Asakabank», «Ipoteka-bank», «O'zsanoatqurilishbank», «Hamkorbank» va «Ipak yo'li» banklari bir yo'la ikkita etakchi xalqaro reyting kompaniyalarining «barqaror» reytingiga ega ekanligi o'ziga hos bahodir.

Shuningdek, respublika bank tizimi kapitallashuv va likvidlik darajalarini oshirish, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda bank tizimini xalqaro me'yor va andozalarga muvofiq yanada rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan tizimli chora-tadbirlar natijalari jahon hamjamiyati, xalqaro moliya va reyting tashkilotlari tomonidan yuqori baholanmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joiz-ki, mamlatimiz iqtisodiyotida banklarning tutgan o'rnini alohida e'tirofga loyiqdir. ayniqsa **“Moody’s”** halqaro reyting agentligi tomonidan 2014 – yil, 15 - aprel kuni nashr qilingan “O‘zbekiston bank tizimining rivojlanish istiqbollari” yangi hisobotiga muvofiq O‘zbekiston bank tizimi rivojlanish istiqbollari ketma-ket **beshinchil yil “barqaror”** deb tasdiqlandi.

“Moody’s” agentligining fikriga ko‘ra, “barqaror” prognozi O‘zbekiston iqtisodiyotining, shu jumladan, iqtisodiyotga katta hajmdagi investitsiyalar yo‘naltirilishi hisobiga, yuqori sur‘atlarda o‘sayotganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, iqtisodiyotni kreditlash hajmlarining o‘shishini ta‘minlovchi manba hisoblangan O‘zbekiston banklarining barqaror daromadlari bank tizimi rivojlanishi istiqbollari ijobiy ta‘sir qiluvchi muhim omillar qatoriga kiritilmoqda.

Agentlik tomonidan O‘zbekistonda oxirgi 10 yil mobaynida yuqori iqtisodiy o‘shish darajasi ta‘minlanganligi hamda mamlakatimiz eksporti tarkibining MDHdagi boshqa davlatlarga nisbatan diversifikatsiyalanganligi hisobiga iqtisodiy o‘shish sur‘atlari o‘zgaruvchanligining sezilarli darajada past bo‘lgani ta‘kidlanmoqda.

Shu bilan birga, “Moody’s” agentligi O‘zbekiston banklari aktivlari sifatining barqaror dinamikasiga e‘tibor qaratib, kapital investitsiyalar sohasidagi ijobiy holat aktivlar sifatining yuqori darajada saqlanib qolishiga asos bo‘lishini qayd etdi.

2013 - yil yakuni bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlari umumiy miqdori **30 foiz**, oxirgi besh yilda esa ushbu ko‘rsatkich **3,6** barobar ko‘paygan.

Bank tizimi kapitallashuvini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan maqsadli chora-tadbirlar banklar jami kapitalining oxirgi besh yilda 3,5 barobar, 2013-yil davomida esa 25,1 foiz oshishini ta‘minladi. Bank tizimi kapitali yetarlilik darajasining ushbu ko‘rsatkichi umumqabul qilingan xalqaro standartlarga nisbatan 3 barobar yuqoridir.

Reyting agentligining fikriga ko‘ra, 2014 – 2015 - yillar davomida kreditlash hajmining yiliga 20 foizga oshishi sharoitida kapital yetarliligining joriy koeffitsientini saqlab qolish uchun «Moody’s» reytingiga ega bo‘lgan O‘zbekiston

banklari kelgusida kapitalni qo‘shimcha oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rishlari lozim.

O‘zbekiston banklarining joriy likvidlik darajasi bank tizimi barqarorligini baholashda muhim omillardan biri bo‘lib, qator yillar davomida 65 foizdan yuqori, ya’ni belgilangan minimal darajadan 2 barobar yuqori miqdorni tashkil etadi.

Ta’kidlash joiz-ki, xo‘jalik subyektlari depozitlari va aholi omonatlari, shuningdek, moliyalashtirishning boshqa manbalari kelgusida bank tizimi likvidligini ta’minlashga xizmat qiladi. Jumladan, tijorat banklaridagi depozitlarning umumiy hajmi oxirgi besh yilda 4,1 barobar, 2013 - yilda esa 30,2 foiz oshgan.

“Moody’s” agentligi tomonidan prognoz davrida O‘zbekiston banklarining likvidlik va daromadlilik ko‘rsatkichlarining barqaror darajada saqlanib turishi kutilmoqda. Umuman olganda, “Moody’s” agentligining ta’kidlashicha, 12-18 oyni tashkil etuvchi prognoz davrida mamlakat iqtisodiyotining yuqori o‘shish sur’ati banklar uchun qulay amaliyot muhitini ta’minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi ma'lumotlarida bu borada batafsil ma'lumotlar mujassam ekanligi ham fikrimizning yaqqol isboti desak mubolag`a bo`lmaydi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2014 - yilda 9,4 foiz, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 8,7 foiz, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 10 foizga o‘sdi. Inflatsiya darajasi yil yakunlari bo‘yicha 6,1 foizni tashkil etdi. Bu prognoz ko‘rsatkichlariga nisbatan sezilarli darajada pastdir.

O‘tgan yili **soliq yuki 20,5 foizdan 20 foizga**, daromad solig‘i stavkasi esa **9 foizdan 8 foizga** kamaytirilgan bo‘lsa-da, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 foiz profitsit bilan bajarildi.

Bank tizimidagi islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror o‘shish sur’atlarini ta’minlashda eng muhim omil bo‘ldi. Buning natijasida tijorat banklarining jami kapitali 25 foizga oshdi. Bank tizimining mustahkamlanishi 2014 - yilda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini **12 foizdan 10 foizga**, tijorat banklarining

kreditlar bo'yicha foiz stavkasini ham shunga mos ravishda kamaytirish uchun zarur imkoniyatlar tug'dirdi.

Banklar tomonidan faqat ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan kreditlar hajmi 2013-yilga nisbatan 1,2 barobar, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ajratilgan kreditlar esa 1,3-martadan ziyod oshdi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, so'nggi yillar davomida «Mudis», «Standart end Purs» va «Fitch reytings» kabi yetakchi reyting agentliklari O'zbekiston bank tizimi faoliyatini «barqaror» deb baholamoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, agar 2011 - yilda mamlakatimizning 13 ta tijorat banki yuqori reyting baholariga sazovor bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda respublikamizning barcha **26ta** banki ana shunday bahoga loyiq ko'rildi.

O'tgan 2014 - yilda 500 dan ziyod yangi korxonalar, birinchi navbatda, kichik biznes subyektlari eksport faoliyatiga jalb etildi. Tashqi savdo balansidagi ijobiy saldo 180 million dollarni tashkil qildi, mamlakatimizning oltin-valyuta zaxiralari 1 milliard 600 million dollarga ko'paydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida maxsus tashkil etilgan Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab - quvvatlash jamg'armasining roli bu borada tobora oshib bormoqda.

2014 - yilda mazkur Jamg'arma tomonidan 2 ming 400 ta tadbirkorlik subyektiga o'z tovar va xizmatlarini tashqi bozorlarga chiqarish bo'yicha huquqiy, moliyaviy va tashkiliy xizmatlar ko'rsatildi. Jamg'arma ko'magida tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 milliard 250 million dollar miqdoridagi eksport shartnomalari tuzildi. Mazkur shartnomalar asosida o'tgan yili qiymati 840 million dollardan ziyod tovarlar eksport qilindi. Jamg'arma tomonidan tadbirkorlarga tashqi bozorlarni o'rganish va chet ellik sheriklarni topish, xalqaro tender savdolarida ishtirok etish, shuningdek, eksport shartnomalarini tuzish, xalqaro sertifikatlar, ruxsat berishga oid hujjatlarni olish va bojxona rasmiylashtiruvini bo'yicha faol yordam berilmoqda.

Shu borada ishbilarmonlik muhitini yaxshilash hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji uchun yanada qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-

tadbirlarni har tomonlama qo‘llab - quvvatlash zarurligini barchamiz albatta yaxshi tushunamiz.

Mulknii ro‘yxatga olish, yer uchastkalari ajratish, ayrim faoliyat turlari bilan shug‘ullanish uchun litsenziya olish, qurilishga ruxsat berish va elektr ta‘minoti tarmoqlariga ulanishda «yagona darcha» tamoyilini amaliyotga joriy etish tobora kengayib bormoqda.

Kichik biznes subyektlari tomonidan statistik va soliq hisobotlarini taqdim etish mexanizmlarisezilarli darajada soddalashtirildi. Bugungi kunda tadbirkorlik subyektlarining 98 foizi soliq va statistika hisobotlari topshirishni, bojxona deklaratsiyalarini rasmiylashtirishni eski usuldagi qog‘oz to‘ldirish yo‘li bilan emas, balki bevosita – elektron shaklda amalga oshirmoqda.

Sanoatning yengil, oziq-ovqat va qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi ko‘p mehnat talab qiladigan tarmoqlarida ishchilarning eng ko‘p soni ilgari 100 kishidan 200 kishigacha oshirilgani kichik biznesni rag‘batlantirish borasidagi chora-tadbirlar tizimidagi muhim qaror bo‘ldi.

2014 - yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga **9 trillion** so‘mdan ortiq yoki 2013 - yilga nisbatan **1,3 barobar** ko‘p, shu jumladan, 2 trillion so‘mga yaqin miqdordagi mikrokreditlar ajratildi. Bu o‘tgan yilga qaraganda 39 foiz ko‘pdir. So‘nggi besh yilda kichik biznesni kreditlash hajmi qariyb 5 barobar ko‘paydi. Xususiy tadbirkorlarning xomashyo resurslaridan foydalanish imkoniyati, birinchi navbatda, bunday mahsulotlarni birja va yarmarka savdolarida sotish hajmini ko‘paytirish hisobidan sezilarli ravishda kengaytirildi. Masalan, 2014 - yilda ular tomonidan Respublika tovar - xomashyo birjasida qariyb 3 trillion so‘mlik yoki 2013-yilga nisbatan 1,6 barobar ko‘p xomashyo va materiallar sotib olindi. Shu bilan birga, xususiy tadbirkorlar birja savdolari orqali o‘zlari ishlab chiqargan 1 trillion 500 milliard so‘mlik mahsulotni sotdi, bu ko‘rsatkich 2013-yilga qaraganda 1,7 barobar ko‘pdir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida o‘tgan yili, fermer va dehqon xo‘jaliklarini hisobga olmaganda, 20 mingdan ziyod yangi kichik biznes subyektlari tashkil etildi,

ularning umumiy soni esa 195 mingdan ziyodni tashkil etdi. Bu 2000 - yilga nisbatan 2 barobar ko'pdir. Yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining ulushi 2000 - yildan buyon 31 foizdan 56 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 12,9 foizdan 31,1 foizga o'sdi.

2014 - yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida 480 mingdan ortiq yangi ish o'rni tashkil etildi. Bu yaratilgan jami ish o'rinlarining yarmi demakdir. Bugungi kunda iqtisodiyotning ushbu sohasida ish bilan band bo'lgan aholining 76,5 foizdan ziyodi mehnat qilmoqda. 2000 - yilda bu ko'rsatkich 49,7 foizga teng edi. Iqtisodiyot sohasida izchil amalga oshirayotgan ana shunday chora-tadbirlarimiz o'zining yuksak samarasini bermoqda.

Jahon banki tomonidan e'lon qilingan, xarid qobiliyati bo'yicha hisoblanadigan yalpi ichki mahsulot hajmiga qarab aniqlanadigan iqtisodiy rivojlanish borasidagi yangilangan reytingda O'zbekiston dunyoning **190 ta** davlati orasida 2010 - yildagi **72 - o'rindan 2014 yil yakunida 66 - o'ringa** ko'tarildi.

Mamlakatimiz 2014-yilda biznesni yuritish sharoiti bo'yicha reytingda **8 pog'onaga**, soliqqa tortish borasida esa **61 pog'ona** yuqoriga ko'tarildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining bahosiga ko'ra, O'zbekiston so'nggi yilda biznes yuritishni yengillashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar bo'yicha yetakchi **o'nta mamlakat qatoridan** joy oldi.

Jadal va mutanosib iqtisodiy o'sish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda faol va aniq yo'naltirilgan investitsiya siyosati yuritish eng muhim omil hisoblanadi. 2014-yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10,9 foizga o'sdi va AQSh dollari hisobida 14 milliard 600 million dollarni tashkil etdi. Bunda jami kapital qo'yilmalarning 21,2 foizdan ortig'i yoki 3 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi. Ularning to'rtidan uch qismi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir. Investitsiya dasturini amalga oshirishda korxonalarining o'z mablag'lari hisobidan yo'naltirilgan to'g'ridan - to'g'ri xususiy investitsiyalarning yildan - yilga faol ishtirok etayotgani barchamizga alohida mamnuniyat bag'ishlaydi.

Birgina o'tgan yilda bunday investitsiyalar hajmi 10,3 foizga o'sib, 4 milliard 300 million dollarni yoki jami investitsiyalar hajmining qariyb 30 foizini tashkil etdi.

O'tgan 2014 - yili tijorat banklarining investitsiyaviy faoliyati ham kengaydi. Ular tomonidan 1 milliard 700 million dollar yoki 2013 - yilga nisbatan 20 foiz ko'p investitsiyalar yo'naltirildi.

Jami investitsiyalarning 73 foizdan ortig'i ishlab chiqarish sohasiga va qariyb 40 foizi mashina va uskunalarni xarid qilishga sarflandi.

2014 yilning yanvar-sentyabrida respublikada asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining AQSh dollaridagi ekvivalenti 10,4 milliard AQSh dollarini yoki 2013 yilning yanvar-sentyabriga nisbatan 112,3 foizni tashkil qildi.

Shu xususida viloyatimizda ham bu borada olib borilayotgan ishlar salmoqlidir, ya'ni. 2014 yilning yanvar-sentyabrida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy miqdori milliy valyutada 23831,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi yoki 2013 yilning shu davriga nisbatan 110,7 foizga o'sdi.(2.2.1-jadval)

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining YaIMga nisbati 23,8 foizni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 foizga o'sdi. Shu jumladan, mulkchilik shakllari bo'yicha davlat va nodavlat sektorlari davlat byudjeti mablag'lari 5,2 mlrd.so'mni, davlat sektori bo'yicha 21,2 foizi, nodavlat sektorda 0,6 foizi, bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari esa 11,0 mlrd.so'mni, davlat sektori bo'yicha 1,6 nodavlat sektori bo'yicha 13,7 foizini to'g'ri kelishi byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari 11,9 mlrd.so'mni buni 35,3 foizi davlat sektori va 5,3 foizi nodavlat sektoriga to'g'ri keladi.

Davlat banklari bilan bir qatorda tijorat banklarini rivojlanib borishi tabiiy va zarurdir. Tijorat banklari O'zbekiston Respublikasining bank tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklari turli pul operatsiyalarini amalga oshiruvchi va kredit operatsiyalarini bajaruvchi banklardir. Tijorat banklari turli pul operatsiyalarini amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining o'ziga xos xususiyati mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlashni ta'minlaydigan, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan investitsiya loyihalariga ustuvor ahamiyat berilayotganida namoyon bo'lmoqda.

2.2.1-jadval

2014 yilning yanvar-sentyabrida mulkchilik shakllari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi

yakunga nisbatan foiz hisobida

		Jami	shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha:	
			davlat	nodavlat
	Jami investitsiyalar, mlrd.so'm	23831,2	5253,7	18577,5
	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha:			
1	davlat byudjeti mablag'lari	5,2	21,2	0,6
2	sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi mablag'lari	0,3	1,6	-
3	korxonalar va aholi mablag'lari	51,7	27,2	58,6
4	chet el investitsiyalari va kreditlari	19,9	13,1	21,8
5	bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	11,0	1,6	13,7
6	byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari	11,9	35,3	5,3

Manba: Namangan statistika boshqarmasi ma'lumoti

2014 - yilda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarida zamonaviy yuqori texnologiyalarga asoslangan uskunar bilan jihozlangan, umumiy qiymati 4 milliard 200 million dollarga teng bo'lgan 154 ta yirik obyekt foydalanishga topshirildi.

2014 yilning yanvar-sentyabrida iqtisodiyot tarmoqlarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi quyidagicha ifodalanadi (2.2.2-jadval) Iqtisodiyot tarmoqlarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi ishlab chiqarish tarmoqlari va noishlab chiqarish sanoat tarmoqlarida o'ziga hos tartibda taqsimlangan. Ma'lum-ki, mazkur tarmoqlarda sanoat, yoqilg'i-energetika sanoati, transport va aloqa uy-joy qurilish, savdo va ovqatlanish talab yuqoriligi ko'rinmoqda.

2.2.2-jadval

2014 yilning yanvar-sentyabrida iqtisodiyot tarmoqlarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi

	mlrd. so'm	Umumiy hajmga nisbatan foizda
1. Ishlab chiqarish tarmoqlari	14970,3	62,8
2. sanoat	8286,8	34,8
3. yoqilg'i-energetika sanoati	5171,7	21,7
4. metallurgiya	635,4	2,7
5. kimyo va neft-kimyo sanoati	343,0	1,4
6. mashinasozlik	560,2	2,4
7. yengil sanoat	404,1	1,7
8. oziq-ovqat sanoati	456,8	1,9
9. qurilish materiallari sanoati	360,1	1,5
10. qishloq xo'jaligi	960,7	4,0
11. qurilish	448,7	1,9
12. transport va aloqa	3163,5	13,3
13. savdo va ovqatlanish	1110,8	4,6
14. geologiya va yer osti boyliklarini izlash	575,3	2,4
15. boshqalar	424,5	1,8
16. Noishlab chiqarish tarmoqlari	8860,9	37,2
17. uy-joy qurilish	5549,2	23,3
18. kommunal xo'jalik	665,0	2,8
19. sog'liqni saqlash	785,2	3,3
20. maorif	751,7	3,1
21. madaniyat va san'at	181,1	0,8
22. boshqalar	928,7	3,9
Jami	23831,2	100,0

Manba: Namangan statistika boshqarmasi ma'lumoti

Mamlakatimizda ham bu jarayonga katta e'tibor qaratilgani holda, yiliga 60 mingta avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan «Xorazm avtomobil ishlab chiqarish birlashmasi» mas'uliyati cheklangan jamiyati bazasida «Damas» va «Orlando» rusumidagi yengil avtomobillar ishlab chiqarishni tashkil qilish», «Jizzax viloyatida 760 ming tonna portlandsement yoki 350 ming tonna oq sement ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish», «80 ming tonna rux konsentratini qayta ishlash bo'yicha rux zavodini rekonstruksiya qilish», «Mis eritish zavodida yangi sulfat kislota sexini qurish», elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatini 50 megavattga oshirish maqsadida «Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasini to'liq miqyosda modernizatsiya qilish», Qoraqalpog'iston Respublikasidagi «Mang'it» mas'uliyati cheklangan jamiyati bazasida yiliga 5 ming tonna mahsulot chiqarish quvvatiga ega bo'lgan ip-kalava yigiruv korxonasi tashkil etish» va boshqa obyektlarni ta'kidlab o'tish mumkin. O'tgan yilda yiliga 25 milliard kub metr gazni uzatish imkonini beradigan Markaziy Osiyo – Xitoy gaz quvurining 1 ming 830 kilometr uzunlikdagi uchinchi tarmog'i ishga tushirildi.

Investorlarga keng soliq imtiyozlari va preferensiyalar berilgan «Angren» maxsus industrial zonasi, «Navoiy» erkin industrial - iqtisodiy zonasi, «Jizzax» maxsus industrial zonasining tashkil etilgani yuqori texnologiyalarga asoslangan korxonalarni rivojlantirish imkonini kengaytirdi. Ushbu zonalar uchun zarur tashqi muhandislik va transport infratuzilmasi to'liq respublikamiz mablag'lari hisobidan barpo etilmoqda.

Yo'l-transport infratuzilmasini taraqqiy ettirish sanoatni jadal rivojlantirish va uning salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. 2014 - yilda umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan 540 kilometr avtomobil yo'lini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari yakunlandi. 116 kilometrdan iborat ikki polosali yo'l kengaytirilib, to'rt polosali qilib qayta qurildi, bu esa o'z navbatida ushbu yo'llarda qatnovni 3 barobar oshirish imkonini berdi.

O'tgan yili temir yo'llar qurish, rekonstruksiya qilish va elektrlashtirish, yuk va yo'lovchi tashiydigan temir yo'l transportini qayta tiklash va modernizatsiya qilish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish maqsadida 630 million dollardan ziyod mablag'

o'zlashtirildi. Bu mablag'ning yarmidan ko'pi Angren – Pop elektrlashtirilgan temir yo'l liniyasini barpo etish loyihasini jadal sur'atlarda davom ettirishga yo'naltirildi. Shu bilan birga, 240 kilometrlik temir yo'l qayta tiklandi, o'zimizda 650 ta yuk va 20 ta yo'lovchi tashish vagonlari ishlab chiqarildi, Qarshi temir yo'l vokzali rekonstruksiya qilindi. Toshkent – Samarqand va Samarqand – Toshkent yo'nalishi bo'yicha qatnaydigan «Afrosiyob» tezyurar poyezdida 2014 - yilda 180 mingdan ziyod yo'lovchi o'z manziliga yetkazildi.

Aviatsiya transportida yuk tashish hajmi 126 million 300 ming tonna - kilometrni tashkil qildi yoki 2013-yilga nisbatan 8,5 foizga oshdi. 2014 - yilda «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi dunyodagi **270 dan ortiq** aviakompaniyani o'zida birlashtirgan Xalqaro havo transporti assotsiatsiyasining (IATA) teng huquqli a'zosi bo'ldi.

Navoiy shahri aeroporti negizida tashkil qilingan xalqaro logistika markazi Yevropa, Hindiston, Xitoy va Janubi - Sharqiy Osiyoga aviatsiya orqali yuk tashishni amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu markaz foydalanishga topshirilganidan buyon o'tgan vaqt mobaynida 200 ming tonnadan ziyod yuk tashildi.

Shuningdek, banklarda uzoq muddatli resurs bazasini shakllantirish borasidagi chora-tadbirlar doirasida aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh pul mablag'larini banklarga jalb qilishdagi moliyaviy vositalardan biri hisoblangan bank qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish ishlari ham jadallashtirildi.

2014 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan hamda aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar orasida joylashtirilgan tijorat banklarining depozit va jamg'arma sertifikatlari 592 mlrd. so'mni, shuningdek, investorlar orasida joylashtirilgan tijorat banklarining uzoq muddatli obligatsiyalari 330 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tijorat banklaridagi depozitlari umumiy hajmi 2013 yil boshiga nisbatan 30,2 foizga ortib, 2014 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, 26,1 trln. so'mga etdi.

Tijorat banklarining o'zaro majburiyatlari bo'yicha hisob-kitoblarning Markaziy bank Hisob-kitoblar markazida ochilgan vakillik hisobvaraqlari orqali amalga

oshirilishi hisob-kitob operatsiyalarini o'tkazish muddatlarining qisqarishiga va to'lov tizimi tranzaktsion xarajatlarining kamayishiga olib keldi hamda tijorat banklariga o'z mablag'laridan yanada samaraliroq foydalanish imkoniyatini berdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanuvchilar, jumladan, bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan («bank-mijoz», «internet-banking», «mobil-banking», «SMS-banking») foydalanuvchilar soni ham ortib bormoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanib borishida va mazkur loyihalarni amalga oshirishda tijorat banklarini roli va tutgan o'rni qanchalik ahamiyatli ekanligi tahliliy natijalarda o'z ifidasini topganligini aytib o'tish maqsadga muvofiq deb xulosa qilishimiz mumkin, zero iqtisodiyotning barcha javhalarida bank tizimi xarakterlidir.

III-bob. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida sanoat korxonalarini rivojlantirishda tijorat banklari kapitallaridan unumli foydalanishning istiqbollari.

3.1. Sanoat korxonalarida bank kapitallaridan samarali foydalanishning istiqbollari.

Bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida shiddat bilan sodir bo'layotgan jarayonlar va birinchi navbatda, qarama-qarshiliklarning kuchayib borayotgani, jahon bozorlaridagi vaziyatning tez o'zgarayotgani, hali-beri davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va uning oqibatlari, dunyoning ko'plab davlatlarida investitsiya faolligining susayishi va o'sish sur'atlarining pasayishi mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi, albatta.

Shundan kelib chiqib, 2015 - yilda yalpi ichki mahsulot hajmining o'sish sur'ati 108 foiz darajasida bo'lishi ko'zda tutilmoqda. Bu borada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 6 foizga ko'payishi belgilanmoqda.

Biz o'z oldimizga iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni 11,7 foizga, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarini 11 foiz va nooziq-ovqat tovarlarini 12,1 foizga ko'paytirish, ushbu mahsulotlarni chakana savdo tarmog'i orqali sotishni 14,2 foizga oshirish vazifasini qo'yamoqdamiz.

Joriy yilda xizmat ko'rsatish sohasini yanada jadal sur'atlar bilan rivojlantirish mo'ljallanmoqda. Xizmatlar ko'rsatish hajmini 15,6 foizga oshirish va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 54,5 foizga yetkazish nazarda tutilmoqda.

Ayni paytda inflatsiya darajasi 5,5 – 6,5 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Bu 2014 - yilga qaraganda sezilarli darajada pastdir.

2015 - yilda ko'zda tutilayotgan kapital qo'yilmalar hajmi AQSh dollari hisobida 15 milliard 960 milliondollarni yoki 2014 - yilga nisbatan 110,1 foizni tashkil etadi. Uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 23,1 foizga yetadi.

Ushbu mablag'larning 74,5 foizga yaqini ishlab chiqarish obyektlari qurilishiga, 43,1 foizi asbob - uskunalar sotib olishga yo'naltiriladi. Chet el investitsiyalari hajmi

3,5 milliard dollardan oshib, ularning umumiy kapital qo'yilmalar hajmidagi ulushi 22,1 foizni tashkil etadi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi esa 11,2 foizga ko'payadi.

Yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari har tomonlama chuqur va puxta o'ylangan izchil soliq va pul - kredit siyosatini amalga oshirish orqali ta'minlanadi. Ushbu siyosat, avvalambor, iqtisodiyotda soliq yukini kamaytirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida uning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirishga qaratiladi.

Birinchi navbatda amalga oshiriladigan vazifalar qatoriga daromad solig'i stavkasini 7,5 foizga kamaytirish kiradi. Shu bilan birga, qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi, sanoat korxonalarida bo'lganidek, 6 foizdan 5 foizga tushiriladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun soliq stavkasi ham yildan-yilga kamayib borishi (3.1.1 - diagramma) o'z-o'zidan ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantiruvchi mexanizm vazifasini o'taydi.


2010 - yilda qabul qilingan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq demokratik va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, davlat va ijtimoiy institutlar hamda sud tizimini isloh etish borasidagi vazifalarni izchil amalga oshirish eng ustuvor yo'nalish bo'lib qolayotganini alohida ta'kidlash lozim.

Barchamiz yaxshi anglab olishimiz zarurki, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilmasdan turib, tashqi bozorlarga chiqish va mahsulotlarimizni sotish borasidagi eksport dasturini amalga oshirish, valyuta daromadlari tushumini ta'minlash, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni va ish o'rinlarini tashkil etish, pirovard natijada o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadlarimizga erishish haqida so'z yuritish mumkin emas.

Birinchi navbatda, jahon bozorida teng raqobatlasha oladigan va keyingi bosqichda iqtisodiy o'sishning, iqtisodiyotni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning lokomotiviga aylanishi mumkin bo'lgan tarmoq va korxonalarini jadal rivojlantirish hamda aniq yo'naltirilgan holda qo'llab-quvvatlashni ta'minlash zarur.

3.1.1- diagramma

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlari uchun soliq stavkasi



Ma'lumki, O'zbekiston jahon bozorida xomashyo resurslarining, masalan, paxta va boshqa turdagi xomashyolarning narxi keskin tushib ketgan holatlarni ko'p marotaba boshidan kechirgan. Shu bilan birga, to'qimachilik va yengil sanoatning boshqa tarmoqlarida ana shu paxta xomashyosini yanada chuqur qayta ishlashni ta'minlash, bo'yalgan ip-kalava, trikotaj polotnosi va matolar kabi tayyor mahsulotlarni xorijiy mamlakatlarga eksport qilish, keyinchalik, zamonaviy texnologiya va dizaynni faol o'zlashtirish asosida, tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ulkan samaraga erisha olamiz. Mamlakatimizda ishga solinmagan yana ko'plab rezerv va imkoniyatlar mavjudligiga birgina shu misol asosida ishonch hosil qilish mumkin. Bu o'rinda gap, avvalo, dastlabki xomashyoni va yarim tayyor mahsulotlarni yanada chuqur qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish, buning uchun neft-gaz, neft-kimyoy va kimyoy, yengil sanoat va elektrotexnika tarmoqlarida yangi kompleks va korxonalar tashkil etish, shuningdek, jahon va mintaqa bozorlarida, ichki bozorimizda xaridorgir bo'lgan tayyor to'qimachilik, chirm-poyabzal, oziq-ovqat, farmatsevtika sanoati, elektronika va maishiy elektr texnika mahsulotlari, maishiy kimyoy tovarlari, qurilish va pardoqlash materiallari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish haqida bormoqda. Prezidentimiz tomonidan Vazirlar Mahkamasiga ikki oy muddatda tegishli vazirlik va idoralar, uyushmalar, kompaniyalar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari ishtirokida 2015 – 2019 - yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishni va qabul qilishni vazifasi yuklatilganligi ushbu masalani kechiktirib bo'lmasligini anglatadi. Ikkinchidan. Xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida bu sohaga to'liq erkinlik berish, bu yo'lda g'ov bo'lib turgan barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish eng muhim ustuvor vazifadir. Barqaror iqtisodiy o'sish va mamlakatimizning kelajak istiqboli, aholining hayot darajasi va sifati ko'p jihatdan ayni mana shu eng ustuvor vazifaning qanday hal etilishiga bog'liq.

Ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida xususiy mulk va investitsiyalar daxlsizligini ta'minlashning ishonchli huquqiy-me'yoriy asoslarini yaratish va

ularning himoyasi uchun ko'p ish qilindi. Mulkdorlarga zarur sharoit va kafolatlar berish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi.

Qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo, xizmat ko'rsatish sohasi singari tarmoqlar, uy-joy fondi to'liq xususiy mulk egalari tasarrufiga o'tkazildi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqaradigan, oziq-ovqat, tikuvchilik mahsulotlari, to'qimachilik, charm-poyabzal, mebel va farmatsevtika sanoati tarmoqlarida davlatning ulushi anchaga kamaytirildi.

Bugun hech kimga sir emaski, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik faoliyatining amaliyoti xususiy mulkning davlat mulkiga nisbatan har tomonlama ustunligini ko'rsatmoqda.

Xususiy korxonalarda sidqidildan mehnat qilishga undaydigan omillar va shaxsiy manfaatdorlik darajasi va eng asosiysi, o'zining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatining yakuniy natijasi uchun mas'uliyat hissi butunlay boshqacha ekani barchamizga yaxshi ma'lum.

Xususiy sektorda mablag'lardan samarali foydalanilmoqda. Bu sohada yuqori sifatli mahsulotlar tayyorlash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirishni ta'minlashga bo'lgan qiziqish va intilish ancha kuchli bo'lib, ishlab chiqarish tufayli imkon qadar ko'p daromad olish kabi pirovard moliyaviy natijalarga erishilayotganini ta'kidlash joiz. Bularning barchasi bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yuritayotgan xususiy korxonalarining asosiy maqsadidir.

Ming afsuski, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida hali-hanuz turli ma'muriy g'ov va to'siqlar saqlanib qolmoqda, mansabdorlar tomonidan ularning qonuniy manfaat va huquqlari buzilayotgani bilan bog'liq ko'plab misollarni keltirish mumkin.

Shu sababdan biz xususiy mulk munosabatlari borasidagi qarashlarimizni mutlaqo o'zgartirish masalalarini qayta ko'rib chiqishimiz zarur. Shu asosda mustahkam huquqiy bazani xususiy mulk manfaatlariga moslashtirishimiz, mulk huquqining kuchli yuridik norma va kafolatlari tizimini shakllantirishimiz, davlatimizning iqtisodiy va ijtimoiy tayanchiga aylanadigan xususiy mulkdorlarning keng qatlamini yaratishimiz kerak.

Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish yo'lidagi g'ov va to'siqlarni olib tashlashga qaratilgan chora-tadbirlar qatorida, avvalambor, xususiy tadbirkorlar uchun xomashyo resurslaridan foydalanish mexanizmini tubdan qayta ko'rib chiqish, uni yanada soddalashtirish, ochiq va oshkora bo'lishini ta'minlash zarur. Buning uchun esa resurslarni ochiq birja va yarmarka savdolarida sotish hajmini kengaytirish lozim.

Yetakchi xalqaro moliya institutlari tomonidan muntazam chop etiladigan, birinchi navbatda, Jahon bankining "Biznes yuritish" deb nomlangan ma'ruzasida e'lon qilinayotgan bizning biznes yuritish bo'yicha ko'rsatkichlarimizni tizimli asosda chuqur o'rganish, mavjud kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishga doir aniq chora va takliflar ishlab chiqish, avvalo, Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi va boshqa manfaatdor idoralarning muhim vazifasiga aylanishi kerak.

Tadbirkorlik subyektlari va xususiy mulk egalari uchun huquq va kafolatlarni qonuniy himoya qilish normalarini kuchaytirish darkor. Bu borada xususiy mulkdorlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishda sud organlari rolini oshirish, davlat, huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik va moliyaviy faoliyatiga noqonuniy aralashuvi uchun javobgarligini kuchaytirish birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lishi lozim.

Shuni tan olishimiz kerakki, xususiy mulkni rivojlantirish uchun uning ochiqlik darajasini va bu sohaning mamlakat iqtisodiyotidagi hissasini aniqlash borasidagi baholash mezonlari haligacha ishlab chiqilmagan. Iqtisodiyot vazirligi, Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Markaziy bank, Davlat statistika qo'mitasi va boshqa iqtisodiy idoralar bu masala bilan jiddiy shug'ullanishi zarur. Bu vazifalarning amalga oshirilishi, o'z navbatida, xususiy biznesni rivojlantirish, jamiyatimizdagi barqarorlikning mustahkam asosi hisoblangan mulkdorlarning o'rta sinfini shakllantirishda va mustahkamlashda rag'batlantiruvchi yangi omil va imkoniyatlar yaratadi. Uchinchidan. Iqtisodiyotimizda davlatning ishtiroki qay darajada ekanini tanqidiy

baholash, uni strategik hamda iqtisodiy asoslangan darajaga qadar qisqartirish zarurligini alohida ta'kidlashni o'rinlidir. Iqtisodiyot tarmoqlarida davlat ulushining mavjudligi va samaradorligini, boshqacha aytganda, "iqtisodiyotda davlat ishtiroki"ni har tomonlama tanqidiy tahlil qilish va shu asosda iqtisodiyot tarmoqlarida xususiy sektor ishtirokini sezilarli darajada kengaytirish bo'yicha vazifalarimizni belgilab olish vaqti keldi. Birinchi navbatda, avvalo, zarar ko'rib ishlayotgan, past rentabelli va iqtisodiy nochor, mahsulotlariga talab yo'qligi sababli to'la quvvat bilan faoliyat ko'rsatmayotgan davlat korxonalarini professional xorijiy investorlarga ularni qayta tiklash va ushbu korxonalar negizida yangi, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish majburiyati bilan "nol" qiymatida sotish zarur.

Bu o'rinda so'z iqtisodiyotning real tarmoqlaridagi texnik va texnologik yangilash, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini kengaytirish va ularning raqobatdoshligini oshirish talab etiladigan korxonalaridagi davlat aktivlari haqida bormoqda. Vazirlar Mahkamasi tomonidan ushbu toifaga kiradigan tarmoqlar, birlashma va korxonalarining ro'yxati tasdiqlanishi lozim.

Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi davlat ulushi mavjud bo'lgan barcha korxonalar va obyektlarni yana bir marta tanqidiy nuqtai nazardan qayta inventarizatsiya qilishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'tgan yili qabul qilingan «Davlat mulki obyektlarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga sotish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga qanday obyektlar kiritilmaganini aniqlashi va real iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida davlat ishtirokini tubdan qisqartirishni nazarda tutgan holda, 2015-2016-yillarda davlat mulkini xususiylashtirish bo'yicha yangi dasturni Vazirlar Mahkamasiga kiritishi zarur.

To'rtinchidan. Korporativ boshqaruv tizimidagi prinsip va yondashuvlarni tubdan o'zgartirish, ishlab chiqarish, tashqi iqtisodiy va investitsiya jarayonlariga zamonaviy xalqaro korporativ menejment standartlarini joriy etish jiddiy e'tiborni talab qiladi. Eng avvalo, korporativ yoki aksiyadorlik birlashmalarimizning faoliyati samaradorligini tanqidiy baholash, ularni xorijiy davlatlardagi ana shunday korxonalar bilan taqqoslab ko'rish zarur. Chunki, bugungi kunda iqtisodiy

rivojlangan mamlakatlarda, ayniqsa, sanoat sohasida mulkchilikning bunday shakli muhim o‘rin tutadi. Mamlakatimizda ham mulkchilikning mazkur shakli tobora katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Mulknini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijasida ayni paytda respublikamizda 1 ming 100 dan ortiq aksiyadorlik jamiyati tashkil etildi va faoliyat yuritmoqda. Ularning umumiy ustav kapitali 11 trillion 700 milliard so‘mdan ortiq bo‘lib, so‘nggi o‘n yilda 5,3 barobar o‘tdi. Bugun shuni tan olish zarurki, aksiyalashtirish jarayonini rivojlantirish ko‘lamining o‘sib borayotgani korporativ boshqaruv va aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatidan tushadigan daromadlarni taqsimlash tizimi hamda xususiylashtirish jarayonining boshqa bir qator yo‘nalishlarida hal etilmagan ko‘plab muammolar mavjudligini yaqqol ko‘rsatmoqda. Bu, ayniqsa, aksiyalar paketlariga davlat egalik qilayotgan aksiyadorlik jamiyatlariga taalluqlidir. Bunday jamiyatlarda aksiyadorlar, ayniqsa, minoritariylar kam hajmdagi aksiyalarga egaligi va aksiyalar paketlarining tarqoqligi tufayli boshqaruv va qaror qabul qilish jarayonidan amalda chetda qolmoqda. Buning natijasida ishlab chiqarish ustidan boshqaruvni ilgarigidek direktorlik korpusi amalga oshirmoqda. Ko‘p hollarda direktorlik korpusi, shuni ta’kidlashimiz kerakki, o‘z faoliyatida hali-beri eski tizim qolipidan chiqolmasligi, ishni zamon talab qiladigan usulda tashkil qilishdan uzoq bo‘lishi ko‘zga tashlanadi. Bunday holat boshqaruvchi kadrlarning yuqoridan buyruq kutib o‘tirishiga, sustkashligi va tashabbus ko‘rsatmasligiga sabab bo‘lmoqda.

Bugun mamlakatimizda shunday amaliy tajriba to‘plandiki, unga ko‘ra, O‘zbekiston sharoitida yurtimiz sarmoyadorlari bilan bir qatorda chet ellik investorlar aksiyalarga ega bo‘lgan mulkchilik shakli eng maqbul bo‘lib, har jihatdan o‘zini oqlamoqda. Hozirgi kunda yurtimizda 90 dan ortiq davlatning xorijiy investorlari ishtirokida tashkil etilgan **4 mingdan ziyod** korxonalar muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan ushbu kompaniyalar O‘zbekistonda ham, uning tashqarisida ham yaxshi ma’lum. O‘zbekiston hududida to‘liq chet el kapitali va korporativ boshqaruvning xorijiy usullariga asoslangan korxonalar muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda. Mazkur xorijiy kompaniyalar tajribalarini chuqur o‘rganishimiz va ularning tahlili asosida korxonalarimiz uchun

korporativ boshqaruvning namunaviy tuzilmalarini yaratishimiz, real iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalaridagi aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv tizimini ayni shu asosda isloh qilgan holda, ularni amaliyotga faol joriy qilishimiz zarur. Allaqachon o'z umrini o'tab bo'lgan, boshqaruvning sovet davriga xos eski va yaroqsiz rejali-taqsimot tizimi va lavozimlar nomenklaturasidan qat'iy voz kechishimiz, bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan tijorat direktori, moliya direktori, mijozlar bilan ishlash va xaridlar bo'yicha loyiha menejeri va boshqa yangi lavozimlarni xalqaro amaliyotga mos ravishda, ularning mansab majburiyati va vazifalarini aniq belgilagan holda, keng joriy etishimiz lozim. Iqtisodiyot vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi barcha manfaatdor tuzilmalar ishtirokida asosiy lavozim va kasblarning yangi klassifikatorini ishlab chiqishi kerak. Aynan ana shunday klassifikator bugungi yangi avlod professional kadrlarini tayyorlashning asosiy mezoniga aylanishi darkor.

Beshinchidan. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish iqtisodiy o'sish va iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan o'zgartirishningeng muhim manbai va omilidir.

Bugungi kunda dunyoda ro'y berayotgan voqealar mavjud mahalliy xomashyo bazasi asosida import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mamlakatimizning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlay olishini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Mahalliyashtirish dasturlarini amalga oshirish borasida to'plagan tajribamiz bizning tashqi omillarga bog'liqligimizni kamaytirish, ichki talabni shakllantirish va bozorlarimizni zarur iste'mol tovarlari hamda butlovchi mahsulotlar bilan to'ldirish, tashkil etilgan ishlab chiqarish quvvatlarining to'liq faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, valyuta resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanish, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha muhim rol o'ynashini amalda tasdiqlamoqda.

Sanoat ishlab chiqarishida mahalliyashtirilgan mahsulotlar hajmining jadal o'sib borayotgani buning amaliy tasdig'idir. 2005-yilda mahalliyashtirilgan mahsulotlar 9,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2014-yilda bu ko'rsatkich qariyb 20 foizga yetdi. Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo

vazirligiga barcha manfaatdor vazirlik, idora, uyushma va kompaniyalarni keng jalb etgan holda, 2015-2019-yillarga mo'ljallangan tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallarni mahalliyashtirish va ishlab chiqarish bo'yicha dastur tayyorlash vazifasi topshirilgan.

Oltinchidan. Rivojlangan infratuzilmani tashkil etmasdan, birinchi navbatda, axborot-kommunikatsiya tizimi, yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya qurilishini taraqqiy ettirmasdan turib, iqtisodiyotimizni tarkibiy jihatdan o'zgartirishga erishish mumkin emas. Shu nuqtai nazardan biz O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini 2013 - 2020-yillarda kompleks rivojlantirish dasturini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratishimiz darkor. Internet tarmog'idan foydalanishning texnik imkoniyatlarini yanada oshirish, keng polosali optik tarmoqlarni kengaytirish va optik tolali aloqa tarmoqlarini qurish ishlarini davom ettirish, barcha hududlarni, shu jumladan, uzoq va chekka hududlarni raqamli televideniye ga o'tkazish ishlarini oxiriga yetkazish zarur.

Vazirlar Mahkamasi ushbu dastur ijrosini qat'iy nazoratga olishi hamda vazirlik va idoralar, pudratchi tashkilotlar tomonidan 2015 – yilga belgilangan vazifalarning so'zsiz bajarilishini ta'minlashi darkor. O'zbekiston milliy avtomagistrali tarkibiga kiradigan avtomobil yo'llari uchastkalarini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning strategik ahamiyatini inobatga olgan holda, «O'zavtoyo'l» davlat aksiyadorlik kompaniyasi, Respublika yo'l jamg'armasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga avtomobil yo'llari qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash, yo'llar bo'yidagi infratuzilmalarni rivojlantirish yuzasidan 2015-yil uchun belgilangan vazifalarni so'zsiz bajarish bo'yicha amaliy choralar ko'rish vazifasi topshiriladi. Temir yo'l kommunikatsiyalarini rivojlantirish borasida ham muhim vazifalar oldimizda turibdi. Yo'lovchi va yuklarni ishonchli hamda uzluksiz tashishni ta'minlash maqsadida 2015-yilda 260 kilometr temir yo'llarni qayta tiklash ko'zda tutilmoqda. Sohada 13 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish mo'ljallanmoqda. 124,1 kilometrlik Angren – Pop elektrlashtirilgan yangi temir yo'lining qurilishi, 140 kilometrlik Maroqand-Qarshi va 325 kilometrlik Qarshi-Termiz temir yo'l

uchastkalarini elektrlashtirish, ikki tomonlama qatnovga ega bo'lgan Jizzax-Yangiyer elektrlashtirilgan temir yo'l tarmog'iqurilishining ikkinchi bosqichini amalga oshirish kabi loyihalar shular jumlasidandir.

«O'zbekiston temir yo'llari» davlat aksiyadorlik temiryo'l kompaniyasi Iqtisodiyot vazirligi, Toshkent va Namangan viloyatlari hokimliklari bilan birgalikda Angren – Pop temir yo'lining o'z vaqtida va sifatli qurilishi ustidan alohida nazorat o'rnatilishi ham prezidentimiz tomonidan belgilangan vazifalar qatoridan joy olgan.

3.2. Sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishning ko'paytirishda bank tizimini muvofiqlashtirish masalalari.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlatning iqtisodiy strategiyasi uzoq vaqtga mo'ljallangan fundamental maqsadlarni o'rta qo'yish bilan bir qatorda, bu maqsadlarga erishish vositalari, yo'llarini belgilashni ham o'z ichiga oladi. Bular orasida ishlab chiqarish samaradorligini to'xtovsiz oshirib borish asosiy o'rinda turadi.

O'zbekiston davlatining qudratini mustahkamlash, aholining moddiy va ma'naviy ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish, kelajakda esa – ularni mo'l-ko'l yaratish, iqtisodiy va ilmiy-texnika sohasida eng rivojlangan davlatlar qatoridan joy olish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga bevosita bog'liqdir.

Sanoat ishlab chiqarishini erkinlashtirish va bu tarmoqda iqtisodiy faoliyat samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirishning asosiy yo'nalishi hisoblanadi.

Sanoat korxonasi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirishning hal qiluvchi yo'llaridan yana biri fan – texnika taraqqiyotidir. Texnik va texnologik omil mehnat unumdorligini o'stirishning kamida uchdan ikki qismini ta'minlaydi.

Ma'lumki, iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlarida texnika taraqqiyotining xarakteri va mazmuni o'z xususiyatlariga ega bo'ladi. Masalan, bugungi kunda iqtisodiy taraqqiyot undagi miqdoriy o'zgarishlargagina emas, balki ko'proq sifat o'zgarishlariga qaratiladi. Umuman, sanoat korxonalarining samaradorligi iqtisodiyotdagi sifat o'zgarishlari bularning barchasi moliyaviy manbalar bilan

bevosita bog`liqdir, bu talab bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat ko`rsatayotgan tijorat banklari va ularning kelgusidagi taraqqiyotiga ham to`liq ta`sir etadi.

Sanoat iqtisodiy faoliyatining yuqori darajaga ko`tarishda inson omilining roli ham beqiyosdir. Insonlarning tashabbuslari, kuch – g`ayrati, jonli ijodiyoti har qanday taraqqiyotning qudratli kuchi va eng muhim manbai hisoblanadi. Shu sababli ham insonni jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi deb aytaydilar. U barcha yangiliklarni, shu jumladan, yangi, ilg`or texnika - texnologiyalarni yaratadi, ishlab chiqarishni oqilona tashkil etadi, ilmiy va amaliy kashfiyotlar qiladi. Barcha ishlab chiqarish vositalari inson mehnati bilan harakatga keltiriladi, foydali narsalar hosil qilinadi. Biroq, inson faqat asosiy ishlab chiqaruvchi kuchgina emas, shu bilan birga ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy munosabatlarning sub`ekti hamdir. Odamlar faoliyati shu munosabatlar orqali ruyobga chiqadi. Bu faoliyat yo`nalishi va natijalari hodimning o`z faoliyatida qanday o`y-fikrlarga, tasavvurlarga, maqsadlarga, hayotiy yo`l - yo`riqlarga, muddaolarga va psixologik e`tiqodlarga amal qilishiga bog`liq. Shu sababli inson omilining mohiyati, ahamiyati va mazmuni tahlil etilganda gap faqat inson haqidagina emas, balki avvalo inson yashab, mehnat qilayotgan ijtimoiy munosabatlarning butun tizimi bilan belgilanuvchi ijtimoiy sifatlar, faoliyatni rag`batlantiruvchi omillar va muddaolar haqida borishi kerak.

Keyingi yillarda iqtisodiyotimizda yuz berayotgan jiddiy tarkibiy va sifat o`zgarishlariga alohida e`tibor qaratilmoqda.

Sanoat mahsuloti umumiy o`shishining qariyb 70 foizini yuqori qo`shilgan qiymatga ega bo`lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo`naltirilgan sohalar tashkil etdi.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizning lokomotiviga aylangan mashinasozlik va avtomobilsozlik, kimyo va neft-kimyo sanoati, oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari sanoati, farmatsevtika va mebelsozlik 2014 yilda jadal sur`atlar bilan rivojlandi. Umumiy holda sanoat tarmoqlari ishlab chiqarish sur`atlarining o`shishini esa 1990 yil darajasiga taqqoslaydigan bo`lsak, 2015 yilning birinchi choragida bu ko`rsatkichlar bir necha marta o`sganini ko`rishimiz mumkin (3.2.1-jadval).

jadval ma'lumotidan ko'rinib turibdi-ki, sanoat ishlab chiqarishni sur'atlari yillar mobaynida faqatgina o'sib borishi kuzatilayotganligi maskur tarmoqlarga jiddiy e'tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi. Ayniqsa, yengil sanoat 4 marta, oziq-ovqat sanoati 6,4, kimyo va neft-kimyo sanoati 3,1, rangli metallurgiya 116,1, mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati 13 marta o'sganligi xarakterlidir.

3.2.1-jadval

Sanoat tarmoqlari ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishi,

foiz (1990=100 foiz)

(2015 yilning dastlabki baholash ma'lumotlari)

Ko'rsatkichlar	1990 yil	2000 yil	2015 yil*
Sanoat – jami	100	123,6	3,2 marta
Yoqilg'i sanoati	100	127,3	2,2 marta
Qora metallurgiya	100	58,8	1,6 marta
Rangli metallurgiya	100	107,4	116,1
Kimyo va neft-kimyo sanoati	100	97,5	3,1 marta
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati	100	142,2	13 marta
Qurilish materiallari sanoati	100	58,4	1,5 marta
Yengil sanoat	100	159,2	4 marta
Oziq-ovqat sanoati	100	150	6,4 marta
Boshqa sohalar	100	162,6	6,2 marta

Manba: O'z R.stat. ma'lumoti.

Bundan tashqari ko'rinadiki, mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish sur'atlari 3,2 marta o'sgan. Ushbu o'sishni ta'minlashda, qurilish materiallari sanoatining o'sishi dastlabki 10 yil ichida, ya'ni 2000 yilda 58,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda mazkur sohani rivojlantirishga qaratilgan e'tibor hamda yaratilgan shart – sharoitlar joriy yildagi o'sish 1,5 martani tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 11,2 foizga o'sdi, 2000 yilga nisbatan esa bu ko'rsatkich 4 barobardan ziyod oshdi.

Mamlakatimizda o'tgan davrlarda sanoatni rivojlantirishning asosiy omillari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- maqsadli dasturlarni amalga oshirish;
- tijorat banklari orqali imtiyozli kreditlash tizimini yanada soddalashtirish;
- infratuzilmani shakllantirish (suv, gaz, elektr energiyasi, transport va boshqalar);

- yengil sanoat sohasida yangi korxonalar tashkil etish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni o`zlashtirish;
- charm xomashyosini qayta ishlash sohasida yangi korxonalar tashkil etish va yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni o`zlashtirish;
- qishloq ho`jalik mahsulotlarini qayta ishlash sohasida yangi korxonalar tashkil etish va bozorni mahalliy mahsulotlar bilan ta`minlash;
- xalq iste`moli tovarlarini ishlab chiqarish va ular bilan bozorni to`la ta`minlash;
- qurilish materiallari industriyasini rivojlantirish;
- sanoatni rivojlantirishda bank kreditlari ta`sirchanligini oshirish;
- sanoatni rivojlantirishda qo`shma korxonalarining ulushini oshirish;
- mahalliy xom ashyoni qayta ishlash;
- mahalliyashtirish dasturi va xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi doirasida yaratilgan imtiyoz va preferentsiyalardan keng foydalanish;
- ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksporti ko`lamini kengaytirish, kichik korxonalar mahsulotlarini eksportga yo`naltirishga ko`maklashish shular jumlasidandir.

Ta`kidlash kerak-ki, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida tarkibiy o`zgarishlarni amalga oshirish va bu sohalarni diversifikatsiya qilishga qaratilayotgan ulkan e`tibor eksport hajmi, uning tarkibi va sifatiga ijobiy ta`sir ko`rsatdi.


Mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatdoshligini oshirish orqali milliy iqtisodiyot raqobatdoshligini darajasini ko`tarishga salbiy ta`sir ko`rsatayotgan, yuqorida sanab o`tilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun Vazirlar Mahkamasi oldiga bir qator masalalarni (3.2.1 – rasm) hal etish vazifasi qo`yildi.

Avvalambor, sanoatda mahsulot tannarxini 10-15 foizga pasaytirish yuzasidan har bir sanoat korxonasi bo`yicha kompleks chora-tadbirlarni ko`zda tutadigan dastur ishlab chiqish vazifasi qo`yildi.

Bu vazifani amalga oshirish sanoat tarmoqlarida mahsulot tannarxini kamaytirish bo'yicha mavjud rezervlarni aniqlash va ishga solish, ishlab chiqarishni material va energiyani tejaydigan zamonaviy uskunalar bilan qurollantirish, mavjud quvvatlardan to'liq foydalanish, xomashyo va materiallar hamda yordamchi tarmoqlar xizmatlari narxinin asossiz o'sishini iqtisodiy yo'llar bilan cheklash, sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish va xorijdan olib kelinayotgan xomashyo, materiallar va butlovchi qismlarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

3.1.1-rasm

Iqtisodiyot raqobatdoshligini oshirish borasida kechiktirib bo'lmaydigan chora – tadbirlar.



Manba: muallif ishlanmasi

Respublikamizda qayta ishlash sanoatining, ayniqsa qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlash tarmoqlarining rivojlanishi darajasi mamlakatimizda

mavjud sanoat xomashyosini to'liq va chuqur qayta ishlash orqali raqobatdosh, yuqori likvidli mahsulotlar ishlab chiqarish uchun yetarli emas.

Masalan, paxta tolasini qayta ishlash darajasi 2011 yilda respublikamiz bo'yicha 14,5 foizni, 2014 yilning yanvar holatiga esa 18,6 foizni tashkil etdi, xolos. Ekspert baholariga ko'ra, 2013 yilda respublikamiz bo'yicha 10,94 million donadan ko'proq teri xomashyosi tayyorlandi. Ammo uning bor yo'g'i 52,3 foizi, ya'ni 5,72 million donasi tayyorlandi, xolos. Chunki terini qayta ishlash korxonalari tomonidan ularni qayta ishlash uchun yetarli talab bildirilmagan.

Teri – charm sanoatini rivojlantirish borasidagi chora – tadbirlar teri xomashyosiga talabning ortishiga olib kelishi sababli 2014 yilda tayyorlanishi mo'ljallanayotgan 11,66 million dona teri xomashyosining 72,3 foizini, ya'ni 8,43 million donasini qayta ishlash ko'zda tutilgan edi amalda esa bu rejaligi qolib ketdi. Bundan ko'rinadi-ki, mazkur sohani rivojlantirishda tijorat banklarining ko'magi darkor.

Mamlakatimizda sanoat ixtisoslashuvi va asosiy tarmoqlarning bir-biri bilan uzviy bog'liqligi uning rivojlanish imkoniyatlari keng ekanligini ko'rsatadi. Sanoat tarmoqlari tarkibi takomillashib, ularning o'zaro aloqalari mustahkamlanib bormoqda. Bu esa respublikamiz sanoatining rivojlanishi va uning tarmoqlarida elektr quvvati, tabiiy gaz, mineral o'g'it, po'lat, paxta tolasini, ip hamda ipak gazlamalar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishda iqtisodiy faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun qulay imkoniyatlarni yuzaga chiqarmoqda.

Muhtasar qilib aytganda, mamlakatimizda, hususan, Namangan viloyatida sanoat korxonalari mahsulotlari ishlab chiqarishga, hozirgi davrda katta ahamiyat berilayotgani ijobiy holdir.

Jumladan, viloyatda sanoat korxonalarini rivojlantirish maqsadida, korxonalarini barqarorligini, ishlab chiqarish hajmini oshirishga imkoniyatlar yaratilib berildi. Bunga biz, yana bir bor, tahlil qilish jarayonida aniqlik kiritdik. Bu tarmoqni rivojlanishiga omil sifatida birinchidan, mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasi bo'lsa, ikkinchidan, mamlakatimizdagi tijorat banklarining investitsiyalari, hamda shu bilan birgalikda xorijiy hamkorlar tomonidan

kiritilayotgan chet el investitsiyalari, u ham bo'lsa, to'g'ridan – to'g'ri investitsiyalarning samarasidir.

Xulosa va takliflar.

Sanoat milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i hisoblanadi va ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishda, aholining turmush-darajasi oshirishda uning ahamiyati beqiyosdir. Ayniqsa, uning yoqilg'i – energetika, mashinasozlik, metallurgiya va qurilish materiallari tez rivojlandi. Chunki bu sohalar respublikaning boshqa sanoati rivojlangan mamlakatlarga qaramligini yo'qotish va bu borada mamlakat mustaqilligini ta'minlash uchun kerak edi.

O'zbekiston sanoati fan-texnika taraqqiyoti, boshqaruvi va tashkil etilishining takomillashuvi va kadrlar salohiyatining yuqori darajaga ko'tarilishi hamda xorijiy investitsiyalarning ko'plab jalb etilishi tufayli izchil rivojlana boshladi. Mustaqillik yillarida uning tarmoq strukturasi tubdan o'zgardi va natijada yangidan-yangi tarmoqlar yuzaga keldi.

Sanoat juda ko'p tarmoqlardan iborat bo'lib, ularning har biri korxonalar yig'indisidan tashkil topadi. Tarmoq hosil bo'lishi uchun korxonalar bir necha umumiy xususiyatlarga ega bo'ladilar.

Sanoat tarmoqlari o'rtasidagi ishlab chiqarishning o'zaro aloqadorligi va ularning takror ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan miqdoriy nisbatlari tarmoq strukturasi tashkil etadi. U sanoat taraqqiyotida ro'y beradigan texnika va texnologiya rivojining darajasi, ijtimoiy – tarixiy shart – sharoitlar bilan bog'liq ravishda o'zgaradi.

Turli sanoat tarmoqlari o'rtasidagi ishlab chiqarish aloqalari o'zaro mahsulot almashish, tajribalarni o'rganish bilan tavsiflanadi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ishlab chiqarishning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligi muhim kategoriya sifatida, umuman olganda ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini, erishilgan natija bilan jonli va buyumlashgan mehnat o'rtasidagi nisbatlarni o'rganadi.

2. Sanoat korxonasi iqtisodiy faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlarini yaxshilash yo'llari va ishlab chiqarishi samaradorligining doimiy oshib borishi ob'ektiv zarurat hisoblanadi va milliy daromadning keskin ko'payishiga imkoniyat yaratib beradi.

3. Samaradorlik umumiy nazariyasida mezon muammosi, ya'ni baholash o'lchovi, asosiy nuqtai - nazar masalasi alohida o'rin egallaydi. Jami ijtimoiy mehnatni tejash, uning unumdorligi o'sishi samaradorlikning mezoni hisoblanadi.

4. Iqtisodiy hisoblash va tahlil tajribasida ikki xil samaradorlikni farqlaydilar. Birinchi - bu umumiy (mutloq) samaradorlik, ikkinchisi- qiyosiy samaradorlik.

5. Sanoat ishlab chiqarishi samaradorligining darajasi turli xil o'zaro bir biri bilan bog'liq omillar ta'siri ostida shakllanadi.

6. Sanoatda ilmiy-texnika bazasi – bu uning ilmiy salohiyati va barcha mehnat vositalarining majmuidir. Bu salohiyat eng avvalo sanoatni, so'ngra, xalq xo'jaligining boshqa sohalari rivojini ta'minlaydi.

7. Sanoat sohasida fan-texnika taraqqiyotini an'anaviy yo'nalishlariga ishlab chiqarishni elektrlashtirish va elektronizatsiyalash, mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, ximiyalashtirish va yangi (progressiv) texnologiyalarni joriy etish kiradi.

8. O'zbekiston Respublikasi, shu jumladan, Namangan viloyati bu borada o'zining juda katta salohiyatiga ega. Mamlakatning izchil va barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun ana shu salohiyatdan to'la-to'kis foydalanish va fan-texnika taraqqiyotini yanada tezlatish zarur.

9. Sanoat sohasida ajoyib yutuqlar bilan birga bir qator kamchiliklar va hal etilmagan muammolar mavjud. XXI asrda bu muammolarning yechimini topish uchun Ўzbekistonda, xususan Namangan viloyatida barcha imkoniyatlar, ya'ni juda katta moddiy, mehnat, moliyaviy va intellektual resurslar mavjud. Ana shu resurslardan oqilona foydalanish asosida Ўzbekistonning juda qudratli va samarali sanoatini yanada yuqori darajaga ko'tarish mumkin.

10. Sanoat rejasini tuzish eng murakkab ishlardan biri hisoblanadi. Chunki bunda taraqqiyotning barcha tomonlarini oldindan ko'rish, ya'ni bashorat qilish

hamda bu taraqqiyotni ta'minlovchi iqtisodiy va texnik salohiyatning samarali variantlarini qidirib topish kerak bo'ladi. Mustaqillik yillarida rejalashtirishni takomillashtirish borasida anchagina ishlar amalga oshirildi. Lekin xalq xo'jaligini, jumladan, sanoatning rejali, mutanosib rivojlanishining bir qator muammolari hali o'z yechimini topgani yo'q. Shu sababli bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish va demokratik davlat, bozor iqtisodiyotining talablariga javob beradigan rejalashtirishni yaratish zarur.

11. Xodimlarning moddiy manfaatdorligi tamoyilini hayotga muntazam ravishda, ya'ni izchillik bilan tatbiq etish sanoat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli sanoat ishlab chiqarishida mehnatga haq to'lashni yaxshilash va uning eng progressiv usullarini qo'llashga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi.

12. Kadrlarning bilim, ilm va malaka darajasi mamlakat ishlab chiqarish kuchlarining eng muhim elementi, ya'ni unsuri hisoblanadi. Malakali xodimlar tayyorlash, xodimlar malakasini oshirish, qayta tayyorlashga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Respublikamiz Hukumati tomonidan iqtisodiyotning muhim tarmog'i bank tizimini rivojlantirishga alohida bir e'tibor qaratdi va qaratmoqda. Mustaqillikkacha mavjud bo'lgan bank tizimini qayta tashkil etish va rivojlantirish Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoillari asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. O'zining makroiqtisodiyotdagi muhim ahamiyatiga ko'ra bank tizimidagi islohotlar iqtisodiyotimizning boshqa sohalariga nisbatan jadalroq amalga oshirilmoqda. Qisqa vaqt davomida mamlakatimizda 2-bosqichli zamonaviy bank tizimi yaratildi va u samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

Muntazam iqtisodiy o'sishga erishish uchun albatta iqtisodiyotning real sektorini mablag'lar bilan ta'minlash, investitsion jarayonlarni yanada tezlashtirish, korxonalarini texnik jihatdan qayta jihozlash va modernizatsiya qilishni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi o'zaro to'lovlarni tezkor amalga oshirishda bank tizimining o'ziga xos o'rni mavjuddir.

Demak, bank tizimini takomillashtirish uni yanada erkinlashtirish va isloh qilishni chuqurlashtirish butun iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishi shak-shubhasizdir. Izchil pul-kredit siyosatini o'tkazish orqali iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish va inflyatsiya darajasini yanada pasaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatish, bank tizimiga bo'lgan mijozlarning ishonchini mustahkamlash, banklarni investitsion jarayonlarning aktiv ishtirokchisiga aylantirish, moliya bozorida sog'lom va erkin raqobatni kuchaytirish bu islohatlarning tub mohiyati va mazmunini tashkil qilishi dardkor.

Respublikamiz iqtisodiyotini bundan buyongi rivojlanishida erkinlashtirish ustivor yo'nalish qilib olingan bo'lib, bu sohadagi asosiy vazifa – mulkdorlar sinfini shakllantirish, xususiy mulkchilik yetakchi o'rinda turadigan iqtisodiyotni barpo etishdan iborat. Bu ustivor vazifani bajarish maqsadida erkin tadbirkorlik uchun iqtisodiy va xuquqiy shart-sharoitlar yaratish, tadbirkorlar tuzilmalarini moliya, bank va bozorning boshqa tuzilmalari bilan munosabatlarini mustaxkamlash, ularning barcha ishlab chiqarish va axborot resurslaridan foydalanishlariga keng yo'l ochib berish, ular ishlab chiqarigan mahsulotlarni mamlakat ichkarisida ham tashqarisida ham sotishiga kafolot beruvchi tizimni barpo qilishdir.

Respublikamiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda Hukumatimiz alohida e'tiborini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga qaratmoqda va bank tizimi oldiga ham aynan shu sohani rivojlantirish ishlarida aktiv ishtirok etish vazifasini qo'ymoqda. Buning sababi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kam investitsiya talab qilgan holda qisqa vaqti ichida yuqori samara bera olishidadir. Bunda o'z-o'zidan ma'lumki yangi ish o'rinlari yaratiladi, davlat byudjetiga soliqlar tushimi ko'payadi, bozorlarimiz turli-tuman tovarlar bilan to'ladi, miliy valyutamizningz qudrati oshadi. Umuman olganda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asosida mulkdorlar sinfini shakllanishi va jamiyatimizda ko'pchilikni tashkil etishi ijtimoiy barqarorlik va farovonlik kafoloti bo'lib xizmat qiladi.

Belgilangan ushbu vazifalarni amalga oshirish sanoat korxonalarini faoliyatini rivojlantirishga olib boradi, deb hisoblaymiz. Natijada, korxonalarda foydalilik darajasi yuksalib boradi, xodimlarning mehnatdan manfaatdorligi ortadi va korxonalar murakkab sharoitda yashab qolishga va o'z faoliyatini davom ettirishga erishadi.

hamda mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojiga o'z hissasini qo'shadi. So'nggi yillarda bank tizimini erkinlashtirish va isloh qilishni chuqurlashtirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida banklarning umumiy kapitali, aktivlari va kredit qo'yilmalari o'tgan davrlarga qaraganda sezilarli darajada oshdi. Jismoniy shaxslarning bo'sh pul mablag'larini omonotlarga jalb etish bo'yicha izchil amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida aholining banklardagi omonotlari qoldig'i yildan-yilga o'sib bormoqda.

Bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida shiddat bilan sodir bo'layotgan jarayonlar va birinchi navbatda, qarama-qarshiliklarning kuchayib borayotgani, jahon bozorlaridagi vaziyatning tez o'zgarayotgani, hali-beri davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va uning oqibatlari, dunyoning ko'plab davlatlarida investitsiya faolligining susayishi va o'sish sur'atlarining pasayishi mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi, albatta. Shundan kelib chiqib, 2015-yilda yalpi ichki mahsulot hajmining o'sish sur'ati 108 foiz darajasida bo'lishi ko'zda tutilmoqda. Bu borada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 6 foizga ko'payishi belgilanmoqda.

Biz o'z oldimizga iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni 11,7 foizga, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarini 11 foiz va nooziq-ovqat tovarlarini 12,1 foizga ko'paytirish, ushbu mahsulotlarni chakana savdo tarmog'i orqali sotishni 14,2 foizga oshirish vazifasini qo'yimoqdamiz.

Joriy yilda xizmat ko'rsatish sohasini yanada jadal sur'atlar bilan rivojlantirish mo'ljallanmoqda. Xizmatlar ko'rsatish hajmini 15,6 foizga oshirish va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 54,5 foizga yetkazish nazarda tutilmoqda. Ayni paytda inflatsiya darajasi 5,5 – 6,5 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Bu 2014-yilga qaraganda sezilarli darajada pastdir.

2015-yilda ko'zda tutilayotgan kapital qo'yilmalar hajmi AQSh dollari hisobida 15 milliard 960 milliondollarni yoki 2014-yilga nisbatan 110,1 foizni tashkil etadi. Uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 23,1 foizga yetisi kuzatilmoqda. Ushbu mablag'larning 74,5 foizga yaqini ishlab chiqarish obyektlari qurilishiga, 43,1

foizi asbob-uskunalar sotib olishga yo'naltiriladi. Chet el investitsiyalari hajmi 3,5 milliard dollardan oshib, ularning umumiy kapital qo'yilmalar hajmidagi ulushi 22,1 foizni tashkil etadi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi esa 11,2 foizga ko'payishi rejalashtirilgan.

Yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari har tomonlama chuqur va puxta o'ylangan izchil soliq va pul-kredit siyosatini amalga oshirish orqali ta'minlanadi. Ushbu siyosat, avvalambor, iqtisodiyotda soliq yukini kamaytirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida uning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirishga qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omillari" nomli ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv qo'llanma, T., 2013 yil.
2. "Tarixiy, madaniy va ma'rifiy merosimiz, urf-odat va qadriyatlarimiz – intellektual kelajagimizning mustahkam poydevori" mavzusidagi xalqaro konferentsiyasidagi nutqi. 2014 yil 14-15 may.
3. Prezident I.A. Karimovning "O'zbekistonda oziq – ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zahiralari" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. 2014 yil.
4. I.Karimov "2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish xisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir." "Xalq so'zi" gazetasi 2015 yil 18 yanvar
5. I.A. Karimov "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohot va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" T. "O'zbekiston" 2013 yil.
6. I.A. Karimov 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. "Xalq so'zi" - 2014 yil.
7. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir" nomli ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv qo'llanma, T., 2013 yil.
8. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2013 yilning asosiy yakunlari va 2014 – yilda O'zbekistonni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim

ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi “Xalq so`zi”, 2014 yil 28 yanvar.

9. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari I.A.Karimov. – T: O`zbekiston, 2009 yil.
10. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma`ruzasi “Xalq so`zi”, 2009 - yil 14 fevral.
11. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O`zbekiston, 2009 yil.
12. O`zbekiston Respublikasining Qonuni. Chet ellik investitsiyalari to`g`risida. 1998 yil 30 aprel.
13. O`zbekiston Respublikasining Qonuni. Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va himoya choralari to`g`risida. 1998 yil 30 aprel.
14. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O`zbekiston Respublikasining 2010 yilgi Investitsiya dasturi to`g`risida. 2009 yil 28 oktyabr.
15. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining Qarori. 2008 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to`g`risida. 2009 yil 13 fevral.
16. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida. 2009 yil 20 yanvar , PQ-1041-son.
17. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. Iqtisodiy nochor korxonalarini tijorat banklariga sotish tartibni tasdiqlash to`g`risida. 2008 yil 19 noyabr , F-4010-son.
18. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to`g`risida. 2008 yil 18 noyabr , PF-4053-son.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.
20. I.A.Karimov “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” T–2011 yil.
21. O'zbekiston – iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda islohotlarni chuqurlashtirishning yangi va yuksak bosqichi yo'lida. (Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V.) T.: Iqtisodiyot, 2008. – 126 b. (elektron versiyasi bilan).
22. Ommabop iqtisodiyot: mohiyati va asosiy tushunchalari (o'zbek va rus tillarida). Ilmiy-ommabop qo'llanma. (Bekmurodov A.Sh., Gimranova O.B., Shamshieva N.N.) T.: Iqtisodiyot, 2009 yil. (elektron versiyasi bilan).
23. O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash yo'lida. Ekspres-prospekt. (Bekmurodov A.Sh., Berkinov B.B., Usmonov B.B., Hamidov O.M., G'afurov U.V. va Ne'matov I.U.) T.: Iqtisodiyot, 2009. – 5 b. (elektron versiyasi bilan).
24. N.N.Rasulov.Stimulirovanie privilecheniya inostrannix investitsii v ekonomiku Uzbekistana.-T.: «FAN», 2003.
25. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 1-qism. Bekmurodov A., Boltabaev M., G'oyibnazarov B., Amanbaev M., Toshxo'jaev M. Makroiqtisodiy siyosat va iqtisodiy islohotlar. – T.: TDIU, 2005.
26. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 2-qism. Bekmurodov A., Hakimov R., Safarov B., Zaxidov G. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlar va fermerlik harakati. – T.: TDIU, 2005.
27. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 3–qism. Bekmurodov A.Sh., Sattorov S., To'raev J., Soliev K., Ro'ziev S. Kichik biznes va tadbirkorlik rivoji – davr talabi. - T.: TDIU, 2005.
28. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 4-qism Bekmurodov A., Tojiev R., Qurbonov X., Alimardonov M. Moliya va bank tizimidagi islohotlar samarasi. – T.: TDIU, 2005.
29. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 5-qism. Bekmurodov A.,

Tairov Sh., Maxmudov E., Isakov M., To`raev N. Tashqi iqtisodiy siyosat: savdo va investitsiyalar oqimlari. – T.: TDIU, 2005.

30. “Qo`shma korxonalarni tashkil etishga investitsiyalarni kiritishning ustuvor yo`nalishlari va vazifalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T.: TDIU, 2008.
31. O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasining tegishli yillar bo`yicha statistik to`plamlari
32. Namangan viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko`rsatkichlari. (Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma`lumotlari), Namangan – 2014 y.
33. Namangan viloyatining ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko`rsatkichlari. (Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma`lumotlari), Namangan - 2015 y.
34. www.mfer.uz – O`zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo Vazirligining rasmiy sayti
35. www.uzinfoinvest.uz - «O`zaxborotinvest» agentligining rasmiy sayti.